

ZUXRA UMAROVA

BOSHLANG'ICH SINFLAR
O'QUVCHILARINI
IXTISOSLASHTIRILGAN
TA'LIM MUASSASALARIGA
TAYYORLASHNING ZAMONAVIY
METODIKASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ZUXRA UMAROVA

**BOSHLANG'ICH SINFLAR
O'QUVCHILARINI
IXTISOSLASHTIRILGAN
TA'LIM MUASSASALARIGA
TAYYORLASHNING ZAMONAVIY
METODIKASI**

MONOGRAFIYA

«Osiyo tur»
Toshkent – 2024

UO‘K 373.3;37.041

KBK 74.26

U-42

**“Umuman, ixtisoslashgan maktablar
ta’lim, ilm va amaliyotni o‘ziga qamrab
olgan yagona klaster doirasida faoliyat
yuritishi kerak”**

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti

Umarova Z.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy metodikasi. Monografiya. – Toshkent, 2024

Monografiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy metodikasi masalalari yoritilgan. Unda mazkur masalaning nazariy-metodik ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan va tadqiqotni tayyorlashda “O‘zbekiston-2030” strategiyasida qo‘yilgan sifatli ta’limga erishish vazifalari ijrosini ta’minlashga asosiy e’tibor qaratildi.

Monografiya bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, magistrantlar, amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Mardonov Shukrullo Qo‘ldoshevich – pedagogika fanlari doktori, professor

UO‘K 373.3;37.041

KBK 74.26

Taqrizchilar:

Onaxon Jabborova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Dildora Pulatova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ISBN 978-9910-751-10-3

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARIGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga tayyorlash zaruriyati.....	7
1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga tayyorlashning pedagogik omillari	16
1.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga tayyorlashga doir yondashuvlar	23
II BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARIGA TAYYORLASH METODOLOGIYASI.....	32
2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga tayyorlash metodikasi.....	32
2.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiya jarayonida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga tayyorlash metodikasi...45	
2.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga tayyorlashning amaliyot metodikasi	52
III BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARIGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARI	61
3.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashgan ta’lim muassasalariga zamonaviy individual texnologiya asosida tayyorlash.....	61
3.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashgan ta’lim muassasalariga zamonaviy raqamli texnologiya asosida tayyorlash.....	65
3.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashgan ta’lim muassasalariga xorijiy mamlakatlarning zamonaviy texnologiyasi asosida tayyorlash.....	70
Xulosa va tavsiyalar	78
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	80
Ilova	82

KIRISH

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida 2026 yil yakuniga qadar mamlakatimizda boshlang‘ich ta‘limning ta‘limning sifat ko‘rsatkichlariga erishish vazifalari qo‘yilgan. Bu vazifalarda quyidagi ikki asosiy masalaga e‘tibor berish va uning ijrosini ta‘minlash belgilangan:

birinchidan, aholi talablariga mos boshlang‘ich ta‘limni tashkil qilish;

ikkinchidan, xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan boshlang‘ich ta‘limni amalga oshirish.

Mazkur vazifalar ijrosi jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta‘limning keyingi bosqich va turlariga tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini *ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga* tayyorlashning zamonaviy metodikasi masalalarini tadqiq etish dolzarb bo‘lib turibdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar faoliyat yuritmoqda.¹ Bundan tashqari, 2023 yilda yana 3 ta ixtisoslashtirilgan maktablar va 5 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar tashkil etildi. Shu tariqa bugungi kunda mamlakatimizda ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tomonidan boshqarilmoqda. Shuningdek, muayyan fanlar chuqurlashtirib o‘qitiladigan ixtisoslashgan sinflar ham faoliyat yuritmoqda. Bundan maqsad “iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash”dan iborat. Mazkur Farmonda ta‘kidlanganidek, 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab ushbu ixtisoslashtirilgan maktablarga *aniq fanlar* yo‘nalishiga qabul 5-sinfdan boshlab, *gumanitar fanlar* yo‘nalishiga ham qabul 5-sinfdan boshlab va *tabiiy fanlar* yo‘nalishiga qabul 7-sinfdan boshlab amalga oshirilmoqda. Shuningdek, nogironligi mavjud bo‘lgan bolalar uchun ham maxsus maktab-internatlar faoliyat yuritmoqda va ular O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan boshqariladi. Bularning barchasi ixtisoslashtirilgan maktablarning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 apreldagi “Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni. “Yangi” gazetasi 2022 yil 16 aprel soni

zamonaviy talablar asosida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda o‘quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta‘lim bilan qamrab olish o‘ziga xos *tarixga* ega. 1934 yili Maorif vazirligi imkoniyati cheklangan va iste‘dodli yoshlarni maxsus o‘qitish bo‘yicha buyruq qabul qiladi hamda Toshkent shahrida umumiy o‘rta ta‘lim shaklidagi maxsus maktab faoliyatini yo‘lga qo‘yadi. Mazkur maktab bugungi kunda R.Glier nomidagi ixtisoslashtirilgan musiqa internat-maktabi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasasining yo‘lga qo‘yilishi mamlakatimiz Pedagogika fani va ta‘lim tarixida o‘ziga xos yangilik sifatida qabul qilinadi. Buning natijasida quyidagi tashkiliy ishlar amalga oshirilganligini eslatib o‘tish lozim:

1) ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari ta‘lim va tarbiya jarayoniga mamlakatning eng tajribali o‘qituvchilarini jalb qilish;

2) mazkur ta‘lim muassasalari uchun ixchamlashtirilgan va maqbullashtirilgan o‘quv dasturlari hamda o‘quv adabiyotlarini yaratish;

3) Rossiya tajribasi asosida ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida qo‘shimcha ta‘lim va maxsus tadbirlarini yo‘lga qo‘yish;

4) mamlakat oliy o‘quv yurtida ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari uchun professional o‘qituvchilar tayyorlashni tashkil qilish.

Buning natijasida mamlakatimizda ixtisoslashtirilgan ta‘limning pedagogik, psixologik va ijtimoiy asoslariga asos solindi.

Mamlakatimizda ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga asos solinishi bu borada *nazariy-metodik masalalarni* ham ishlab chiqishni taqozo etdi. Shu sababli mazkur masalalarda 1935 yildan boshlab quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-metodik tadqiqotlar yaratish amaliyotiga amal qilib kelinmoqda:

1) ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarining nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

2) ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarining didaktik omillarini ishlab chiqish va ular asosida o‘quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish;

3) ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiya va faoliyat metodikalarini shakllantirish va ularni takomillashtirib borish;

4) ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarining ta‘lim va tarbiya yo‘nalishlari bo‘yicha professional pedagog kadrlar tayyorlash

hamda ularning malakalarini oshirib borish.

Buning natijasida mamlakatimizda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining milliy va xalqaro talablarga mos bo'lgan ilmiy – metodik asoslariga ega bo'lindi.

Shu tariqa mamlakatimizda ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan ixtisoslashgan ta'limni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari faoliyatda bo'lib kelmoqda. Mazkur masalalar bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy metodikasi muammolarini monografik tarzda tadqiq etishni taqozo etdi.

Shu jihatdan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlashning zamonaviy metodikasi muammolarini tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur monografiyada ushbu muammoning quyidagi masalalari tadqiq etildi:

birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning nazariy asoslari;

ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning metodologiyasi;

uchinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy texnologiyalari;

to'rtinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning nazariy va amaliy ahamiyati;

beshinchidan, tadqiqot natijasida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Mazkur vazifalar tahlili jarayonida asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy metodikasi muammolarini tadqiq etish va uning aniq metodikasini ishlab chiqishga qaratildi.

Monografiyaga doir fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARIGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash zaruriyati

“O'zbekiston -2030” strategiyasida belgilangan boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish vazifasini amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayyorgarlik ko'lamini kengaytirish ham taqozo etiladi. Chunki bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari keyingi ta'lim bosqichi va turlariga tayyorlanayotganligi bilan ham boshlang'ich ta'lim mazmunining o'zgarganidan dalolat beradi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini *ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga* tayyorlash zaruriyati masalasi tahliliga bu o'rinda e'tiboringizni tortamiz.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish uning vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bugungi kun talablari asosida tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu masalada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida muhim vazifalar qo'yilgan. Ana shunday vazifalardan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga *tayyorlashdan* iborat. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu vazifaning zaruriyati masalasi tahliliga tortamiz.

“Ixtisoslashtirilgan ta'lim” deganda muayyan fanlarning maxsus va chuqurlashtirilgan tarzda o'qitilib, Shu fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilim va ko'nikmasini yuksak darajada shakllantirish nazarda tutiladi.² Shu sababli ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari me'yoriy hujjatlarga asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

ba'zi fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish bilan o'quvchilarning Shu fanlar bo'yicha bilim darajasini kengaytirish (bunda ko'p hollarda aniq, tabiiy va gumanitar fanlarning turkumlashtirib

² Хасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент.: “Фан ва технология”. 2009.

o'qitilishiga asoslaniladi);

1) o'quvchilarning bilim va ko'nikma darajasini keng ko'lamda shakllantirish (bunda o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan keyin muayyan o'quv fanlariga ixtisoslashtirishga e'tibor beriladi);

2) o'quvchilarning fanlar bog'liqligidagi layoqatlari va iqtidorlari maqsadli ravishda rivojlantiriladi (bunda o'quvchilarning tabiiy layoqatlarini rivojlantirishga diqqat qilinadi).

E'tibor berilsa, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'ziga xos vazifalarni bajarishi bilan boshlang'ich sinf bitiruvchilarini ta'limning eng muhim bosqichiga olib kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 apreldagi "Prezident ta'lim muassasalar agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq ixtisoslashtirilgan sinflar va maktablar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) o'quv jarayoni xalqaro ta'lim dasturlari asosida tayyorlangan zamonaviy darsliklar asosida olib boriladi;

2) o'quvchilar xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishi uchun zarur shart-sharoitlar va ta'lim muhiti yaratiladi;

3) sun'iy intellekt, robototexnika, agrotexnologiya, nanotexnologiya, biotexnologiya, IELTS, TOEFL va SAT xalqaro dasturlar bo'yicha qo'shimcha kurslar tashkil etiladi;

4) o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda asosiy o'quv dasturlari bilan birgalikda sinfdan tashqari kasbga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi;

5) o'quvchilar O'zbekiston tarixi, ilmiy – ijodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy merosga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Diqqat qilinsa, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari zamonaviy talablar asosida ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshiradi. Ta'kidlangan Farmonda bunday ta'lim muassasalari pedagog kadrlarning bilim darajasi va kasbiy mahorati muntazam ravishda baholab boriladi. Shu sababli ushbu ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayoni takomillashtirilgan tarzda tashkil etilgan.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini 3-4-sinflarda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash va uning metodikasini tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Ta'kidlash lozimki, mazkur muammo bo'yicha pedagogik tadqiqotchilimizda maxsus ilmiy ishlanmalar yaratilgan emas. Shu sababli bu muammoni

tadqiq etish bilan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash muammosini tadqiq etish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu o'rinda boshlang'ich sinf bitiruvchilari 5-sinfdan boshlab quyidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga qabul qilinishini eslatib o'tish joiz:

1) ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga;

2) Prezident maktablariga.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga boshlang'ich sinf bitiruvchilarini qabul qilish me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 dekabrda 3842-sonli Qarori bilan tasdiqlangan va bugungi kunda ham amalda bo'lgan "Ayrim fanlar chuqurlashtirib o'rganiladigan davlat umumta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflariga, davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalariga o'quvchilar qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomiga asosan mamlakatimizda quyidagi ikki turli ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda:

1) umumta'lim maktablarida tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan sinflar;

2) ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari (1-band).

Mazkur ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida muayyan fanlar maxsus o'qitilishi bilan muhim xususiyat hisoblanadi. Ushbu Nizomga ko'ra, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga 4-sinfni bitiruvchilari qabul qilinadi (2-band). Shu sababli boshlang'ich ta'limni bitiruvchilari ana shu ikki ixtisoslashtirilgan ta'limga *tayyorlanishi* muhim hisoblanadi.

Mazkur Nizomga 2020 yil 15 dekabrda kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga quyidagicha test sinovlari vositasida o'quvchilar qabul qilinadi:

a) *filologiya* – ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga kirish uchun til va adabiyotdan 20 ta va matematikadan 10 ta, jami 30 ta test savoli bo'ladi;

b) *ijtimoiy fanlar* – ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga kirish uchun til va adabiyotdan 20 ta va matematikadan 10 ta, jami 30 ta test savoli bo'ladi;

v) *aniq fanlar* – ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga kirish uchun matematikadan 20 ta hamda til va adabiyotdan 10 ta, jami

30 ta test savoli bo'ladi;

g) *tabiiy fanlar* – ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga kirish uchun matematikadan 20 ta hamda til va adabiyotdan 10 ta, jami 30 ta test savoli bo'ladi;

d) *xorijiy tillar* - ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga kirish uchun ingliz tili, nemis tili yoki fransuz tilidan 20 ta, ona tili va adabiyotdan 10 ta, jami 30 ta test savoli bo'ladi;

e) *texnologiya* - ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga kirish uchun matematikadan 20 ta hamda til va adabiyotdan 10 ta, jami 30 ta test savoli bo'ladi.

E'tibor berilsa, 4-sinf bitiruvchisi ana Shu yo'nalishlardagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun ta'limiy jihatdan tayyor bo'lsagina, u mazkur ta'lim yo'nalishlariga qabul qilinadi. Demak, ana Shu yo'nalishdagi fanlar bo'yicha to'garaklar tashkil etish va ular vositasida boshlang'ich sinf o'quv fanlari bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu tariqa boshlang'ich sinf bitiruvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va Prezident maktablariga tayyorlash zaruriyatini idrok etish lozim bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yili "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan, bu ixtisoslashtirilgan maktablarga ham o'quvchilar maxsus imtihonlar asosida qabul qilinadi. Biz ushbu bitiruv ishimizda ana Shu ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini yagona nomda – "*ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari*" shaklida ishlatdik. Mazkur ta'lim muassasalariga boshlang'ich sinf bitiruvchilarini *ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy* jihatdan tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga *ta'limiy tayyorlash* uchun boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari aniq, gumanitar va tabiiy fanlarga bo'linib o'qitilishi taqozo etiladi. Bunda quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiq bo'ladi:

o'quvchilarning fanlar bo'yicha iqtidori va qiziqishini aniqlab, ularni fanlarga yo'naltirish;

aniq, gumanitar va tabiiy fanlarni o'qitishda qo'shimcha darslar, mashg'ulotlar hamda maxsus topshiriqlar tashkil etish;

fanlar bo'yicha tarkib topgan guruhlarini va har bir o'quvchini tajribali fan o'qituvchilariga biriktirish;

fanlar bo'yicha berilayotgan bilimlarni o'zlashtirilishini alohida monitoring qilib borish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ta'limiy tayyorlash maqsadli amalga oshadi

II. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga *tarbiyaviy* tayyorlash muhim zaruriyatlardan hisoblanadi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari pedagogik tajribamizda qabul qilingan quyidagi tarbiya turlari bo'yicha maqsadli tarbiyalanishi kerak bo'ladi:

aqliy tarbiya;

jismoniy tarbiya;

estetik tarbiya;

ruhiy tarbiya;

fuqarolik tarbiyasi.

Mazkur tarbiya turlari bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich (sinflar bo'yicha) va uzviy tarbiyalanishi taqozo etiladi.

a) *aqliy tarbiya* – bu shaxsning ongini shakllantirish va uning intellektual quvvatini rivojlantirishdir.³ Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tarbiyaviy tayyorlashda ularning bilimga qiziqishini oshirish, aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish va mustaqil fikrlashga ko'niktirishga e'tibor berish kutilgan samarani beradi.

b) *jismoniy tarbiya* – bu shaxsning organizmini to'g'ri shakllantirish va uni mehnatga ko'niktirishdan iborat. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tarbiyaviy tayyorlashda ularni jismoniy chiniqtirish, jismoniy jihatdan rivojlantirish va imkon qadar bolalar sporti turlarining biriga yo'naltirish taqozo etiladi. Chunki, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida shaxsni jismoniy tarbiyalashga chuqur e'tibor beriladi.

v) *estetik tarbiya* – bu shaxsning his-tuyg'ularini rivojlantirish va uning ongida go'zallikka muhabbat ko'nikmasini tarkib toptirishdir. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan

³ Qarang: Abdullayeva B va boshq. Pedagogika. – T.:TDPU.2017. Tarbiya turlariga doir izog'lar ushbu manbadan olindi.

ta'lim muassasalariga tarbiyaviy tayyorlashda ularning estetik tuyg'ularini chuqurlashtirilgan tarzda tartibga solish va o'quvchilarni oqilona munosabatga tayyorlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'quvchi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida boshlang'ich ta'limning qiyofasi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

g) *ruhiy tarbiya* – bu shaxsning ruhiyatini, axloqini va xarakterini shakllantirishdir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tarbiyaviy tayyorlashda ularning ruhiyatini mustahkam tarkib toptirish, yaxshi axloqiy sifatlarga ko'niktirish va ularda mo'tadil xarakterini tarkib toptirish kutilgan samarani beradi. Mustahkam ruhiyat, yaxshi axloq va havas qiladigan xarakter o'quvchilarning ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida faollik bilan o'qishlariga asos bo'ladi.

d) *fuqarolik tarbiyasi* – bu shaxsni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, unda vatanparvarlik, xalqparvarlik va jamoaparvarlik fazilatlarini shakllantirishdir. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tarbiyaviy tayyorlashda fuqarolik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf bitiruvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tarbiyaviy jihatdan tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari va Sinf rahbari alohida yondashishi taqozo etiladi.

III. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga *amaliy* tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va ularning yo'nalishlari to'g'risida to'liq ma'lumot berib borish;

b) 3-sinf dan boshlab o'quvchilarning qaysi ixtisoslashgan ta'lim muassasasini tanlaganini aniqlab borish va ular bilan alohida ishlash;

v) imkon qadar o'quvchilarni hududdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari sharoitlari bilan tanishtirib borish;

g) ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasini tanlagan o'quvchilarning har bir murojaatlariga tezkor ravishda va o'z vaqtida javob berish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy jihatdan tayyorlashning samaradorligini beradi.


Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga va Prezident maktablariga tayyorlash omillarini belgilaydi. Shu sababli mazkur masalaning *zaruriyatini* idrok etish taqozo etiladi. Mazkur masalada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash zaruriyati quyidagilar bilan belgilanishi masalasini quyidagicha umumiy idrok etish mumkin:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ta'limiy tayyorlash;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tarbiyaviy tayyorlash;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy tayyorlash.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash zaruriyati ta'limiy, tarbiyaviy jihatdan muhim hisoblanadi. Diqqat qiling:



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash zaruriyati

Shu sababli bu masalaga sinflar kesimida yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagi metodikaga asoslanish maqsadga

muvofiq bo'ladi:

a) 1-2-sinf o'quvchilarini o'quv fanlari bo'yicha qiziqishlarini aniqlab, ularning layoqatlik darajasi asosida yo'naltirish;

b) 3-4-sinf o'quvchilarini bevosita ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlab borish.

Boshlang'ich ta'limda 1-2-sinf o'quvchilari o'quv fanlari olamiga olib kiriladi. Bunda ular aniq, tabiiy va gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining asoslari bilan dastlabki tarzda tanishtiriladi. Mana Shu jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchilarining muayyan o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishlarini o'rganib borish va bu boradagi layoqatini aniqlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, 1-2-sinf o'quvchilari barcha turkumdagi o'quv fanlariga qiziqadi. Biroq bu o'rinda ularning o'quv fanlarga nisbatan layoqatini aniqlab borish muhim o'rin tutadi. Pedagogik tajribalardan ma'lum bo'lishicha, layoqat masalasida boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiy xususiyatlarga ega bo'lsada, biroq ularda fanlar kesimida layoqatlik darajasi farqlanadi. Shu sababli mazkur masalada aniq, tabiiy va gumanitar o'quv fanlarining o'qituvchilari hamkorlik asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlar kesimi bo'yicha layoqatlik darajasini aniqlab borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Layoqatlik darajasini aniqlashda 1-2-sinf o'quvchilariga qo'shgimcha vazifalar va topshiriqlar berish metodikasiga asoslanish kutilgan samarani beradi. Aynan qo'shimcha vazifalar va topshiriqlarni bajarish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchisining muayyan o'quv fani bo'yicha layoqatlik darajasi namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida 3-4-sinf o'quvchilarini bevosita ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlab borish muhim ahamiyatga egadir. Bunda 1-2-sinfda aniqlangan layoqatlik darajasiga asosan 3-4-sinf o'quvchilari fanlar kesimiga asosan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlaniladi. Buning uchun qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilish va ularda o'quvchilar yo'naltirilayotgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga asoslanish, o'quv fanlari to'garaklari imkoniyatlaridan keng foydalanish va imkon qadar o'quvchi yo'naltirilayotgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ularni chuqur tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayonda har bir o'quv fanining o'qituvchisi uchun bajarishi lozim bo'lgan qo'shimcha

vazifalar paydo bo'ladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan o'quvchilari o'zlashtirish muvaffaqiyatlariga erishayotgan o'qituvchilarga muntazam bir oylik maosh miqdorida rag'batlantirib borish tizimi yo'lga qo'yilgan. Mazkur imkoniyatlardan foydalangan holda 3-4-sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, bunday metodikaga asoslanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash zaruriyatini amaliy jihatdan asoslaydi. Shu sababli mazkur zaruriyat asoslari bilan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik qurollantirilishi va Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti vositasida amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikalari bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Umuman boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash zaruriyati masalasida quyidagi *xulosalarga* kelish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash jamiyat ehtiyoji hisoblanadi va bu bilan o'quvchilar keyingi ta'lim bosqichiga talab darajasida yo'naltiriladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy jihatdan tayyorlash zaruriyat hisoblanadi, buning uchun o'quvchilar bilan 3-sinfdan boshlab ishlash taqozo etiladi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'zlari ta'lim olgan boshlang'ich sinflarning qiyofasi sifatida ta'lim-tarbiya oladi. Ularning faolligiga qarab boshlang'ich sinflarning ta'lim samaradorligiga baho beriladi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning pedagogik omillari

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning vazifalari chuqurlashib bormoqda. Chunki ta'lim tizimining rivojlanishi natijasida boshlang'ich ta'limning eng muhim ta'lim bosqichlaridan biriga aylanish jarayoni kechayotganligi ma'lum. Boshlang'ich ta'limning ana shunday vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashdan iborat. Negaki, ixtisoslashgan ta'lim – bu “zaruriy bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmui”dir.⁴ Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning *pedagogik omillari* tahliliga tortamiz.

1. Bilimdonlik. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning asosiy va zaruriy pedagogik omillaridan biri o'quvchilarning bilimdonligidir. Unga ko'ra, o'quvchilar boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari zarur. Chunki boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari ta'limning keyingi bosqichlarida o'qitiladigan o'quv fanlarining boshlovchisi hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimdonlik darajasi fanlar kesimida rivojlantirib borilishi lozim. Bunday yondashuv natijasida birinchidan, o'quvchilar o'quv fanlarini chuqur o'zlashtiradilar; ikkinchidan, o'quvchilar o'zlari tanlagan ixtisoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlar kesimida bilim va aqliy jihatdan tayyorgarlikka ega bo'lishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha o'quv fanlari bo'yicha chuqurlashtirilgan va keng ko'lamli bilimlarni egallashi ularning ta'limning keyingi bosqichlaridagi faoliyati asoslarini belgilaydi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitishda butunlay yangicha yondashuvlarga tayanish taqozo etiladi. Bu borada quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani berishini ta'kidlash joiz:

1) o'quv fanlarining har bir mavzulari bo'yicha qo'shimcha tushuntirishlar va ma'lumotlar berishga e'tibor berish;

2) o'quv fanlarini o'qitish bo'yicha tajribali o'qituvchilarning

amaliy yordamidan muntazam foydalanib borish;

3) o'quv fanlarini o'qitishda multimediali, kompyuterli kabi o'qitishning noan'anaviy dars shakllaridan keng foydalanish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimdonlik darajasini kuchaytiradi. Chunki ta'lim oluvchilarning bilim darajasi kengayishida qo'shimcha tushuntirishlar va ma'lumotlar, tajribali o'qituvchilarning individual yondashuvlari hamda noan'anaviy dars shakllari muhim o'rin tutadi. Mazkur omillar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimdonlik darajasini kuchaytirishga erishish mumkin va bu bilan ularni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlash imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimdonlik darajasi muntazam ravishda o'rganilib borilishi taqozo etiladi. Chunki bu masala o'quvchilarning o'zlashtirganlik holatini aniqlash va u to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish bilan bog'liqdir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini *3-sinf*dan boshlab bilimdonlik darajasini o'rganib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur toifa o'quvchilarning bilimdonlik ko'rsatkichini quyidagi mezonlarga asosan aniqlash mumkin:

1) o'quv fanlari vositasida berilgan bilimlarni o'zlashtirish darajasi;

2) o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi;

3) topshiriqlarni bajarishga o'quvchilarning ijodiy yondashuvi darajasi.

Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv fanlari bo'yicha bilimlarini o'zlashtirish darajasini aniqlashda o'quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumiga bo'lib o'rganish samarali bo'lishini ta'kidlash lozim. O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlari vositasida mustaqil fikrlash ko'nikmasiga ega bo'ladi, Shu sababli bunda o'quvchilarning berilgan topshiriqlarni to'g'ri va aniq bajarishiga asosan ularning mustaqil fikrlash darajasini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimdonlik darajasini ularning ijodiy yondashuv ko'nikmasiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega va mazkur ko'nikmani aniqlash uchun o'quvchilarning topshiriqlarni kreativ bajarishiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Shu tariqa boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimdonlik ko'rsatkichlari quyidagilar bilan belgilanadi:

⁴ Хасанбоев Ж. Ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли лугат. – Т.: “Фан ва технология”. 2009.201-бет.

- a) o'zlashtirish darajasi;
- b) mustaqil fikrlash darajasi;
- v) ijodiy yondashuv darajasi.

Bumazonlarasosidaboshlang'ichsinfo'quvchilariningbilimdonlik darajasi va ko'rsatkichi aniqlanadi, ularga asosan o'quvchilarning ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash imkoniyatlariga ega bo'linadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini tahlil qilish natijasida ularning bilimdonlik darajasi aniqlanadi. Mazkur masala bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlar, darsliklar va lug'atlarda berilgan metodik tavsiyalarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

II. Ko'nikmalik. Boshlang'ich sinfo'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda ularning ko'nikmaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Ko'nikma – bu “aqliy va jismoniy harakatlar, usullar va yo'l-yo'riqlardir”.⁵ Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanishda quyidagi jihatlardan ko'nikmaga ega bo'lishi kerak:

- 1) aqliy jihatdan yetuklik;
- 2) jismoniy rivojlanganlik;
- 3) o'zini boshqara olish;
- 4) maqsadga intiluvchanlik.

O'quvchining *aqliy* jihatdan yetukligi uning bilimga qiziqishi, fikrini ifodalay olishi va bilim sari intilishlarida namoyon bo'ladi. Har bir o'quvchi aql tuyg'usiga ega, ayni paytda, o'quvchilar aqliy yetuklik darajasidan farqlanadi. Shu sababli ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda imkon qadar boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy yetukligiga erishish taqozo etiladi.

O'quvchining *jismoniy* rivojlanganlik darajasi uning o'z yoshiga mos ravishda quvvatga egaligi, serharakatligi va intiluvchanligi bilan belgilanadi. Jismoniy rivojlanganlik darajasini aniqlashda o'quvchilarning serharakatligiga e'tibor berish kutilgan samarani beradi. E'tibor berilsa, bunda Jismoniy tarbiya o'quv fanining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni *o'zini boshqara olish* ko'nikmasini shakllantirishdan iborat ekanligi

ma'lum. Bunda o'quvchi tanish va notanish vaziyatlarda to'g'ri xatti-harakat qila olishi, harakatlari bilan o'zida yaxshi taassurot uyg'ota olishi nazarda tutiladi. Negaki o'quvchi kelgusi ta'lim bosqichida boshlang'ich ta'limda o'zlashtirgan o'zini boshqara olish ko'nikmasiga tayanib, harakat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda ularning *maqsadga intiluvchanlik* ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan maqsadga intiluvchanlik ko'nikmasi o'quvchini bilim va tarbiya olishga yo'naltiradi. Shu sababli ularning maqsadga intiluvchanlik ko'nikmasini shakllantirish bilan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning samarasiga erishish mumkin. Negaki maqsad – o'quvchini yo'naltiruvchi kompas vazifasini bajaradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'nikmalik darajasini shakllantirishda o'ziga xos pedagogik omillar mavjud. Mazkur omillardan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalik darajasi ularni mustaqil faoliyatga yo'naltirishning eng muhim omilidir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalik darajasini aniqlashda quyidagi mezonlarga asoslanish taqozo etiladi:

- a) aqliy va jismoniy yetukligi;
- b) o'zini boshqara olishi;
- v) intiluvchanligi;
- g) harakatchanligi.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda ularning ko'nikma jihatidan mos bo'lishini ta'minlaydi. Chunki mazkur toifa o'quvchilarining yoshiga mos ravishda aqliy va jismoniy yetuk bo'lishi, tanish va notanish vaziyatlarda o'zini boshqara olishi, intiluvchanlik hamda harakatchanlik ko'nikmalariga kutilgan darajada ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

III. Malakalik. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda ularning malakalik darajasi ham muhim o'rin tutadi. Malaka – bu “shaxsning bilim va tarbiya

⁵ Шу манба. 240-бет.

olish bo'yicha o'ziga xos tajribaga ega bo'lishi"⁶ Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda ularning bilim, tarbiya, xatti-harakat va maqsadga ega bo'lishiga e'tibor berish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tegishli malakaga ega bo'lishida ularning bilimdonligi, tarbiyalanganligi, munosib xatti-harakatga ega bo'lishi va maqsadga intilishi omillari muhim o'rin tutadi. Bu omillar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakalik xususiyatlari tarkib toptiriladi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakasini shakllantirishda quyidagilarga diqqat qilish samarali hisoblanadi:

- 1) o'quv fanlarini o'qitish jarayonida chuqurlashtirilgan bilim berish;
- 2) o'quvchilarni axloqiy, ma'naviy va estetik ongini shakllantirish;
- 3) o'quvchilarni munosib xatti-harakatlarga o'rgatish;
- 4) o'quvchilarda o'z oldiga maqsad qo'ya olish va unga intilish ko'nikmasini shakllantirish.

Bunday yondashuv vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakalik darajasini kutilgan darajada shakllantirish mumkin. Mazkur omillar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakalik darajasini kuchaytirish va uning ko'rsatkichlarini aniqlashda asos hisoblanadi.

Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakalik darajasining shakllanish jarayoni kuzatib borilishi kerak. Bunday kuzatuv jarayonida quyidagi mezonlar asoslanish taqozo etiladi:


- a) chuqurlashtirilgan bilimga egalik;
- b) ijtimoiy ongga egalik;
- v) o'z individual xatti-harakatiga egalik;
- g) maqsadga egalik.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida malakaning shakllanganligini o'rganish va uni baholash imkonini beradi. Natijada mazkur toifa o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlashga erishiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtiril-

⁶ Шу маъба. 257-бет.

gan ta'lim muassasalariga tayyorlashning o'ziga xos pedagogik omillari mavjud. Diqqat qiling:



2- rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning pedagogik omillari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning pedagogik omillari masalasida *yangicha yondashuvlarga* tayanish muhim o'rin tutadi. Chunki bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichi yangilanishlar va o'zgarishlar jarayonini boshidan kechirmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning pedagogik omillari masalasida quyidagi yangi yondashuvlarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) maktab ta'lim muhitidan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash omili;

b) boshlang'ich ta'lim sinflari imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash omili;

v) individual yondashuv imkoniyatlaridan foydalangan holda

boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash omili.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida o'ziga xos muhit yaratilganligini ta'kidlab o'tish lozim. Bunda to'garaklar faoliyatidan foydalanish, o'qituvchilarning mustaqil mashg'ulotlar tashkil qilishidan foydalanish va o'quvchilarning qiziqishiga mos ravishda qo'shimcha ta'limni yo'lga qo'yishdan foydalanish muhim o'rin tutadi. Shu sababli bunday ta'lim muhiti vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash imkoniyatlari keng ekanligini eslatib o'tish joiz. Masalan, qo'shimcha ta'lim yoki mashg'ulotlarni tashkil qilish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash jarayoni yanada kuchayadi. Chunki bunday mashg'ulotlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiy o'rta ta'lim yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining ta'lim muhiti bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Shu sababli keyingi paytlarda va asosan 2023-2024 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'lim bosqichida, umuman umumiy o'rta ta'lim jarayoniga Prezident ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari tayyorlash kutilgan samarani beradi. Chunki o'ziga birlashtirilgan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi vaqt me'yoringa istalgan vaqtda o'quvchilar bilan individual mashg'ulotlar, suhbatlar, treninglar, yo'naltirishlar, tushuntirishlar va tavsiyalar berib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash jarayoni muhim amaliy mexanizm imkoniyatlarini beradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning mazkur muhim omillarini hisobga olish va ularga asoslanish muhim ahamiyatga egadir. Bu borada bizning yondashuvimizga ko'ra, mazkur omillardan foydalanish bo'yicha yutuqlarga erishgan boshlang'ich ta'lim bosqichi tajribalarini o'rganib, mamlakat miqyosida ommalashtirib borish muhim ahamiyatga egadir. Buning natijasida mamlakat miqyosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda teng, samarali va kutilgan ko'rsatkichlarga erishish ta'minlanadi. Chunki aniq va qulay omillarga tayanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan

ta'lim muassasalariga talab darajasida tayyorlash imkonini beradi. Bu masalalarning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning pedagogik omillari masalasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlanishi kerak va bu masala bugungi kundagi eng muhim ta'lim-tarbiyaviy vazifalardan biri hisoblanadi.

2. Bu jarayonning pedagogik omillari o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat bo'lib, unda ta'lim hamda tarbiyaning imkoniyatlariga tayangan holda mazkur vazifa amalga oshiriladi.

3. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar aynan boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zlashtirgan kompetensiyalariga (bilim, ko'nikma va malakalariga) tayangan holda ta'limiy, tarbiyaviy hamda amaliy faoliyat yuritadi. Shu sababli bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining hamkorlikda faoliyat yuritishi taqozo etiladi.

1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashga doir yondashuvlar

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash jarayonida eng muhim yondashuvlarga asoslanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana Shu masalaning tahliliga tortamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning dasturli yonlashuvi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning muhim yondashuvlaridan biri dasturli yondashuvdir. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari 3-4-sinflarda maxsus tuzilgan dasturlar asosida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanadi. Bunda quyidagilarga asoslanilishini eslatib o'tish joiz:

a) 3-4-sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga tayyorlash bo'yicha qo'shimcha maxsus dasturni tuzish;

b) maxsus dastur asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qo'shimcha mashg'ulotlarini tashkil etish;

v) 4-sinf III choragi yakunida maxsus dasturning natijalarini baholash.

Xorijiy mamlakatlar, jumladan, Rossiya Federatsiyasi ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarni ta'limning keyingi bosqichi yoki turlariga tayyorlash bo'yicha maxsus dasturlar amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida ta'lim oluvchilar keyingi ta'limiy faoliyatga bilim, ko'nikma va malaka jihatidan amaliy tayyorgarlikka ega bo'ladi. Shu ma'noda mamlakatimizda 3-4-sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha maxsus Dasturni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday dasturda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga aniq fanlar bo'yicha tayyorlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tabiiy fanlar bo'yicha tayyorlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga gumanitar fanlar bo'yicha tayyorlash.

Buning natijasida maxsus dasturda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha mashg'ulotlarni aniq, yo'naltirilgan hamda maqsadli olib borish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Chunki bunday fanlar turkumi vositasida o'quvchilarning qiziqishi va layoqatiga tayangan holda mashg'ulotlarni amaliy amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Mashg'ulotlarni amaliy asosda tashkil etish maxsus dasturning ahamiyatini belgilaydi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya Federatsiyasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga tayyorlash ishida dasturli yondashish tizimiga asosiy e'tibor qaratiladi va buning natijasida amaliy samaralarga erishib kelinayotganligini eslatib o'tish joiz.⁷ Shu jihatdan bunday yondashuvga asoslanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga

⁷ www.pedagog.ru.

tayyorlashning amaliy mexanizmlariga ega bo'lish imkonini beradi.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi 4-sinf yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning natijalarini tahlil qilish va bunda dasturli yondashuv tizimining samaradorligini baholash muhim ahamiyatga egadir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, dasturli yondashuv natijasida ko'pchilik boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga kutilgan darajada tayyorlash imkonini beradi. Shu sababli aniq, tabiiy va gumanitar fanlarning har biri bo'yicha dasturli yondashuvni joriy etish va bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning natijadorligini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur ish sinf rahbarlari tomonidan amalga oshirilishi va natijalarini baholash jarayonida tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda maktab psixologining ishtirok etishi kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning ehtiyojli yondashuvi. Mamlakatimiz hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim tipologik yondashuv asosida yagonalashtirilgan shaklda amalga oshirilmoqda. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda ehtiyojli yondashuvga asoslanish zaruriyat bo'lib turibdi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va layoqatlariga asosan ular ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanishi taqozo etiladi. Shu sababli bu borada quyidagilarga tayanish muhimdir:

- a) 1-2-sinflarda o'quvchilarning qiziqish va layoqatlarini o'rganib borish ehtiyoji;

- b) 3-4-sinflarda o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yo'naltirish ehtiyoji;

- v) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning layoqat va tajriba samaradorligi ehtiyoji.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda ularning qiziqish va layoqatlarini o'rganib borish ehtiyoji muhim o'rin tutadi. Chunki 1-2-sinf o'quvchilarida bilim olishga bo'lgan qiziqish ularning layoqat ko'lamiga asosan tarkib topadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra va pedagogik

tajribalarning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida layoqat darajasi turlicha bo'lganligi uchun ularning qiziqish ko'lamini ham har xil bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining 1-2-sinflarda qiziqish va layoqatlarini turli vositalar orqali o'rganib borish kutilgan samarani beradi. Bunda turli tadbirlar, mustaqil bayon yoki insho yozish, kitobxonlikka qiziqtirish, o'quvchilarni o'z fikrini ifodalashga o'rgatish kabi vositalarga asosan ularning qiziqish va layoqatlarini aniq aniqlash mumkin. Misol uchun, 1-2-sinflarda o'quvchilar ijodiy xususiyatlarga ega bo'ladi va Shu sababli bunda aynan ana Shu xususiyatni rivojlantirish bilan layoqat ko'lamini aniqlash mumkin. Eslatib o'tish joizki, 1-2-sinf o'quvchilari ko'p hollarda Matematika hamda Ona tili va o'qish savodxonligi o'quv fanlariga qiziqish bilan munosabatda bo'ladi, bu qiziqish asta-sekin ularda ijodiylik va mustaqil fikrlash layoqatlarini tarkib toptiradi. Shu sababli 1-2-sinflar o'quvchilarining qiziqish va layoqatlari dinamik rivojlanish jarayonda ekanligini hisobga olib, sinf rahbarlari boshchiligidagi tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar qiziqish va layoqatlarini aniqlash ishini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida qiziqish va layoqat ko'nikmasi aynan ta'lim va tarbiya jarayonining negizini tashkil etishini eslatib o'tish joiz.

O'quvchilar 3-4-sinflarda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yo'naltirilishi kutilgan samarani beradi. Chunki bu davrda boshlang'ich sinf o'quvchilarida qiziqish turg'unlashib, layoqat ko'nikma darajasiga aylanish jarayonida bo'ladi. Bu hol 3-4-sinflarda o'quvchilarni guruhlariga bo'lib ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga yo'naltirishni taqozo etadi. Yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda o'quvchilar guruhlarining treninglarini tashkil qilish, ularning zakovat o'yinlarini yo'lga qo'yish, qiziqishlari bo'yicha bayon va insho hamda yozma ish tanlovlarini o'tkazib borish vositalariga tayanish kutilgan samarani beradi. Bu ish boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi a'zolari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur masalada bizning yondashuvimizga ko'ra, 3-4-sinflarda o'quvchilar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yo'naltirilmasa, ularning layoqat ko'nikmasi kutilgan darajada shakllanmasligi eslatib o'tish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini qiziqish va layoqat ko'nikmalari

asosida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yo'naltirish natijalarini o'rganib borish muhim ehtiyojli yondashuv hisoblanadi. Chunki agar boshlang'ich sinf o'quvchilari 4-sinf yakunida o'zlarining ixtisoslashtirilgan ta'lim yo'nalishlarini tanlagan bo'lsa, demak yo'naltirish ishlari kutilgan samarani bergan hisoblanadi. Negaki boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli yo'naltirish ularning kelgusida bilim va malakalarni egallashdagi jarayon bilan bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va layoqatlariga ko'ra ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yo'naltirish samaradorligi mazkur ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirgan ta'lim muassasalariga ehtiyojli yondashuv asosida tayyorlanmasa, ularning kelgusidagi ta'lim va tarbiya olish jarayoni murakkab kechadi.

Diqqat qilinsa, ehtiyojli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bilan eng avvalo o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirilsa, qolaversa ularning kelgusi ta'lim va tarbiya jarayonini maqsadli tashkil etishga erishish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Chunki bugungi kunda ta'lim oluvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ularga bilim va ko'nikma berish hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga tayyorlash jarayoni kechmoqda. Bunday yondashuv eng avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarining ehtiyojlarini ham hisobga olishini taqozo etadi. Shu jihatdan sinf rahbarlari boshchiligidagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir chorak yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ixtisoslashtirilgan ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuza-tishlarimiz shuni ko'rsatadiki, aniq fanlar boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar ehtiyojiga e'tibor qaratishadi. Lekin, tabiiy va gumanitar fanlar o'qituvchilari o'quvchilarning ehtiyojini hisobga olish masalasida qoniqarli faoliyatda emas. Masalan, "Texnologiya" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari plastilin yoki qog'oz vositasida ishlanmalar yaratishdan tashqari robototexnika, kompyuter dasturlari asosida ishlanmalar yaratishga ham o'rgatilishi lozim. Chunki bu masala 2023-2024-o'quv yiliga

mo'ljallangan mashg'ulotlar Rejasida alohida ko'rsatilgan.⁸ Mazkur masala bo'yicha har bir o'quv yili boshidan boshlab o'quvchilarning ehtiyojini o'rganish va Shu asosda ularni yo'naltirish bo'yicha o'rganish hamda tahlillarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur masalada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ayniqsa, 3-4-sinflardan boshlab ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ehtiyojlaridan kelib chiqib yo'naltirishni yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, umumiy o'rta ta'limni davom ettirishga ehtiyoji bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham muayyan darajada yo'naltirish taqozo etiladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq, tabiiy va gumanitar fanlarga bo'lgan layoqati hamda ehtiyojlariga asoslanish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning tizimli yondashuvi. Tizimli yondashuv – muayyan ta'lim va tarbiya jarayonini majmuaviy tarzda amalga oshirishdir va unda qo'shimcha amaliy tadbirlarga tayaniladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tizimli yondashuv asosida tayyorlashda quyidagilarga tayanish kutilgan samarani beradi:

- a) sinfdan tashqari mashg'ulotlar vositasida tayyorlash;
- b) maktabdan tashqari tadbirlar vositasida tayyorlash;
- v) maxsus guruhlar vositasida tayyorlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari mashg'ulotlar vositasida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash muhim ahamiyatga egadir. Bunda aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilish, ularda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish, o'quvchilarni qiziqishlari bo'yicha taqdimotlar tayyorlash kabilarga tayanish kutilgan samarani beradi. Bunda o'quvchilar o'z qiziqishi, layoqati va ehtiyojlaridan kelib chiqib qo'shimcha mashg'ulotlarning turlarini tanlaydi hamda ularda ishtirok etadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi a'zolarining faol bo'lishi va unda maktab hisobidagi soatlardan

⁸ "Ma'rifat" gazetasi 2023 йил 1 sentyabr soni.

foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan maqsad ayniqsa, 3-4-sinflar o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlashdir.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari muayyan sinovlar asosida o'quvchilarni qabul qiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdan tashqari tadbirlar vositasida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarni bunday ta'lim muassasalari bilan ekskursiya vositasida bevosita tanishtirish, ularning talablari asosida amaliy suhbatlar o'tkazish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiy faolligini tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Bunda "Texnologiya", "Tarbiya" o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarlari maktabdan tashqari tadbirlarni tashkil etishi kutilgan samarani beradi. Ta'kidlab o'tish lozimki, bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning markaziy shaharlarida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Bu ta'lim muassasalari faoliyati bilan qishloq hududlarida istiqomat qilayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining keng tanishtirilishi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Mazkur masala bo'yicha tadbirlar rejasiga ega bo'lish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda maxsus yondashuv muhim ahamiyatga egadir. Unga ko'ra, o'quvchilarni tayyorlash maxsus dasturi tuziladi va har bir sinfning IV choragida Shu dastur asosida mashg'ulotlar o'tkaziladi. Maxsus dasturni tuzishda o'quvchilarning qiziqishi, layoqati va ehtiyojidan kelib chiqib mavzular belgilangan. Bunday yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maxsus tayyorlash imkoniyatlariga ega bo'linadi. Maxsus tayyorlash jarayonida o'quvchilarning layoqati rivojlantiriladi va ular notanish ta'lim muhiti sharoitida faoliyat yuritish ko'nikmasi bilan qurollantiriladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning tizimli yondashuvi muhim amaliy xususiyatlarga egadir.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash ehtiyoji dasturli yondashuv, o'quvchilar ehtiyoji asosida yondashuv va tizimli yondashuv bilan

belgilanadi. Bu masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Mazkur boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashga doir yondashuvlar masalasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning dasturli yondashuvi muhim ahamiyatga egadir. Bunda 3-4-sinf o'quvchilarini maxsus qo'shimcha dastur asosida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning ehtiyojli yondashuvi keng imkoniyatlarni beradi. Bunda 1-2-sinf o'quvchilarida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risida tasavvur uyg'otish va 3-4-sinf o'quvchilarini mazkur ta'lim muassasalariga yo'naltirish muhim ahamiyatga egadir.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning tizimli yondashuvi ham keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan diqqatni tortadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari mashg'ulotlar, maktabdan tashqari tadbirlar va maxsus guruhlar tuzish vositasida tayyorlash kutilgan samarani beradi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasida boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish vazifasi alohida qo'yilgan. Bu borada 2023-2024 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash muammosini tadqiq etish va uning metodikasini ishlab chiqish ham zaruriyat bo'lib turibdi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning nazariy asoslarini belgilab olish muhim ahamiyatga egadir. Bunda o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash zaruriyatini idrok etish, mazkur tayyorlash jarayonining pedagogik omillarini belgilab olish va

ushbu masalaga doir yondashuvlar tizimini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning nazariy asoslari bo'yicha oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy bilim va ko'nikma bilan qurollantirish, pedagoglarni qayta tayyorlash va yangi metodikalarga o'rgatish kurslarida amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazariy malakalarini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli mazkur tadqiqotni amalga oshirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARIGA TAYYORLASH METODOLOGIYASI

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv fanlarini o'qitish jarayonida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasi

O'zbekiston boshlang'ich ta'limining imkoniyatlari kengayib borayotganligi muhim hodisa hisoblanadi. Bu borada keyingi yillarda boshlang'ich ta'lim oldida yangi-yangi vazifalar paydo bo'lmoqda. Ana shunday vazifalardan biri boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasini ishlab chiqishdir. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

Metodika – bu “qat’iy ketma-ketlikka, ilgari belgilangan rejaga va tizimga aniq rioya qilish”dir.⁹ Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasini rejalilik, bosqichlilik va tizimlilik tashkil etadi.

I. Aniq fanlarni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasi. Boshlang'ich ta'limda Matematika va Jismoniy tarbiya aniq fanlari o'qitiladi. Mazkur fanlarni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- matematik savodxonlikni kuchaytirish;
- o'quvchilarning jismoniy jihatdan rivojlanishini ta'minlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini kuchaytirishda milliy pedagogik tajriba va PISA kabi xalqaro ta'lim dasturlariga asoslanish kutilgan samarani beradi. Buning natijasida o'quvchilar aynan ana shu yo'nalishlar bo'yicha ta'limning keyingi bosqichlarida faol ishtirok etadi.

Jismoniy rivojlanishni ta'minlashda bolalar sporti turlariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining

⁹ Хасанбоев Ж.ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат. –Т.: “Фан ва технология”. 2009. 311-бет.

jismoniy, quvvat va harakat jihatidan sog'lom rivojlanishi ularning ongining o'sishiga, dunyoqarashining to'g'ri shakllanishiga va bilimga bo'lgan qiziqishining ortishiga asos bo'ladi.

Matematika va Jismoniy tarbiya o'quv fanlarini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda quyidagilarga amal qilish muhim hisoblanadi:

a) o'quvchilarning matematika asoslari, tushunchalari bo'yicha nazariy bilimni dastlabki bosqichda shakllantirish va ulardan foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish;

b) o'quvchilarning jismoniy madaniyat va tarbiya asoslari bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularda mazkur yo'nalishlar bo'yicha qiziqishlarini hosil qilish;

v) matematik tafakkur va jismoniy madaniyat uyg'unligi asosida o'quvchilarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qo'yiladigan bilim, ko'nikma va malakaga doir davlat ta'lim standartlari hamda malakalarining kutilgan darajada bajarish imkoniyatini ham beradi. Shuningdek, Matematika va Jismoniy tarbiya o'quv fanlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini uyg'un voyaga yetkazish bilan ular matematikaga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga va sport ta'lim muassasalariga tayyorlanadi. Bunda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi vositasida ularning ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorgarlik imkoniyatlari tarkib toptiriladi. Shu sababli o'qitish jarayonida mazkur masalalarga o'qituvchilar tomonidan alohida e'tibor berilishi taqozo etiladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizning ko'pgina umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari matematika yoki sportga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qishmaydi. Buning asosiy sababi boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maxsus tayyorlash ishining amalga oshirilmasligidadir. Vaholanki, aynan matematik tafakkur va jismoniy madaniyat shaxsning to'laqonli faoliyat yuritishi asosidir. Shu jihatdan matematik tafakkur va jismoniy madaniyat ko'nikmalari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida shakllantirilishini eslatib o'tish joiz. Buning uchun bunday ta'lim muassasalariga o'quvchilar boshlang'ich sinflardan boshlab tayyorlanishi maqsadga muvofiq

bo'ladi.

Bularning barchasi o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari o'quv dasturlariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika va sportga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash masalalarini kiritish, ular bo'yicha amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarga aniq ko'nikmalar berishni taqozo etadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinflarda aniq fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish bilan o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga kutilgan darajada tayyorlash imkoniyatlari mavjud.

II. Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasi. Boshlang'ich sinflarda quyidagi tabiiy fanlar o'qitilishi ma'lum:

- Atrofimizdagi olam;
- Tabiatshunoslik.

"Atrofimizdagi olam" o'quv fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- 1) borliq va voqelik haqida o'quvchilarga dastlabki tushunchalarni berish;
- 2) quruqlik va suvdagi hayvonot dunyosi to'g'risida bilim berish;
- 3) fasllar va ularning insonning jismoniy rivojlanishida tutgan o'rni to'g'risida tushuncha berish.

Bu masalalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash muhim o'rin tutadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari atrofimizdagi olam (Borliq) to'g'risida dastlabki tushunchalarni egallashi bilan tabiiy-ilmiy bilimlar olamiga kiradi.¹⁰ Shu sababli Atrofimizdagi olam o'quv fanining boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashdagi o'rni muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- o'quvchilar ongida borliq va voqelik to'g'risida to'g'ri tushunchalarni shakllantirish (bunda atrofimizdagi olamning moddiy dunyo sifatida insonga xizmat qilishi va insonning uni himoya qilishi to'g'risida o'quvchilarga bilim berish, o'quvchilarda voqelikning

¹⁰ Каранг: Очилов Ф.

tabiiy jarayon ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirish kutilgan samarani beradi);

- o'quvchilarni quruqlik va suvdagi hayvonot dunyosi bilan dastlabki bosqichda to'liq tanishtirish (masalan, hayvonot dunyosini uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar turkumlariga bo'lib tushuntirish, suvdagi hayvonot dunyosining eng muhimlari bilan tanishtirish, bunda baliq kabi hayvonot dunyosining oqar suv va ummonlarda bir xil hayot kechirishini o'rgatish kabilarga e'tibor berish o'quvchilarning bu boradagi ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatlarini beradi);

- o'quvchilarda qish, bahor, yoz va kuz fasllarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida aniq bilimlar tarkib toptirish (bunda o'quvchilar fasllarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchalarga ega bo'lishi va yurtimizda fasllarning to'liq amalda bo'lishi bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi).

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga Atrofimizdagi olam o'quv fani bo'yicha chuqur bilim berish bilan ularni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash va yo'naltirish ishlariga erishish mumkin bo'ladi. Chunki mamlakatimizda Biologiya fanlarini chuqurlashtirib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan sinflar va ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda.

"Tabiatshunoslik" o'quv fanini o'qitish jarayonida qo'yilayotgan masala bo'yicha quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'quvchilarga tabiat to'g'risida to'liq bilim berish;
- 2) o'quvchilarni o'simlik dunyosi bilan tanishtirish;
- 3) o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirish.

Diqqat qilinsa, tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning imkoniyatlari keng. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat va tabiat hodisalari to'g'risida dastlabki bosqichda bilimlarni shakllantirish, ularni o'simlik dunyosi bilan to'liq tanishtirish va o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirish vositasida ularni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlashga erishish mumkin. Bunda o'quvchilarning tabiat hodisalarini tabiiy qabul qilish, o'simlik dunyosining tabiiy va madaniy turlarga bo'linishi, mazkur asoslarga tayangan holda ularning ekologik ongini

shakllantirishga erishishga e'tibor berish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, o'quvchilar tabiat va o'simlik dunyosi haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lsa, ularning ekologik ongi tez shakllanadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik ongi deganda ularda tabiatni sevishtirish, asrash va o'simlik dunyosini himoya qilish tushunchalarining tarkib topishi ta'sbiqlanadi. Bu borada Tabiatshunoslik o'quv fanining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik fanlarini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarga ustuvor darajada e'tibor berish lozim. Buning uchun sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiya va sayohat qo'shimcha mashg'ulotlarining imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli mazkur o'quv fanlari o'qituvchilari amaliy mashg'ulotlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanishi, uning vositasida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tarbiyalashga erishishi taqozo etiladi. Bu masala ham o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari vositasida amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarga tushuntirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bugungi jamiyatimiz rivoji boshlang'ich sinf o'quvchilarini turli yo'nalishdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashni taqozo etadi.

III. Gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasi. Boshlang'ich sinf sinflarda quyidagi gumanitar fanlar o'qitiladi:

- Ona tili va o'qish;
- O'zbek (rus, ingliz) tili;
- Tarbiya;
- Musiqa madaniyati;
- Tasviriy san'at;
- Texnologiya;
- Konstitutsiya alifbosi;

"Ona tili va o'qish" o'quv fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash uchun

quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1) Ona tiliga muhabbat va o'qib tushunish savodxonligiga ega bo'lish;
- 2) milliy til bilan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;
- 3) o'zga tillarni o'rganishda Ona tilining imkoniyatlariga tayanishni o'rgatish;
- 4) o'quvchilarning milliy ongini shakllantirish.

Mazkur yondashuv asosida Ona tili va o'qish fanini o'qitish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan (yoki ijodiy) ta'lim muassasalariga tayyorlash mumkin bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tiliga muhabbat ruhini uyg'otish ularning milliy tuyg'usini shakllantirishga, o'qish savodxonligini oshirish esa ularning milliy ongini tarkib toptirishga asos bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilarda milliy (ona) til bilan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish ularda milliy axloq va odobni shakllantirishga asos bo'lishni ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, o'zga tillarni o'rganishda Ona tilining imkoniyatlariga tayanish ko'nikmalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki bugungi kunda ko'p o'quvchilarning xorijiy tillarni ikkinchi chet tili (masalan, rus tili) vositasida o'rganayotganligi sir emas. Shu sababli mazkur masalada Ona tili va o'qish o'quv fanining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Bundan tashqari, tillarni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- 1) o'quvchilarning chet tillardan birini o'zlashtirishga erishish;
- 2) o'quvchilarda chet tilida so'zlashish va yozish ko'nikmasini uyg'un shakllantirish;
- 3) o'quvchilarning chet tillar bo'yicha lug'at boyligini rivojlantirish;
- 4) o'quvchilarni o'zi o'rganayotgan chet tilining xalqlari madaniyati bilan tanishtirish.

Bunday yondashuv chet tillarni o'qitish jarayonida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlash imkonini beradi. Negaki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishga bevosita kirishiladi va bunda o'quvchilar boshlang'ich sinflarda olgan ko'nikmalariga tayanadi. Shu sababli

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga chet tillarni o'qitish amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Tarbiya" o'quv fanini o'qitish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'quvchilarning axloqiy ongini talab darajasida shakllantirish;
- 2) o'quvchilarda insonparvarlik, ezgulik, bunyodkorlik kabi fazilatlarni shakllantirish;
- 3) o'quvchilarni o'zgalar bilan munosabatga ko'niktirish;
- 4) o'quvchilarni ijtimoiy faollashtirish.

Umuman boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda "Tarbiya" fanining imkoniyatlari keng. Chunki mazkur fan vositasida o'quvchilarni ushbu toifa ta'lim muassasalariga tayyorlash jamiyat ehtiyoji hisoblanadi. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limda tarbiya ko'nikmasini egallagan o'quvchilar ta'limning keyingi bosqichlari va turlarida o'zlarining axloqiy ong, fazilat va ijtimoiylik darajasini namoyon qiladi. O'zgacha aytganda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni tarbiyalashning poydevori qo'yiladi. Shu sababli Tarbiya fanini o'qitishda butunlay yangicha yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarga asoslanish taqozo etiladi.¹¹ Buning uchun pedagog olimlar quyidagilarga amal qilishni tavsiya etishadi:

- o'quvchilarni tarbiyalashda tabiiylik va ilmiylik tamoyillarining uyg'unligiga tayanish;
- o'quvchilarni amaliy faoliyatga tarbiyaviy jihatdan tayyorlash;
- o'quvchilarni tarbiyalanganlik ko'nikmasi bilan qurollantirish;
- o'quvchilar tarbiyasida namuna va ibrat bo'lish vositalarini keng qo'llash.

Bunday yondashuv natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyaviy jihatdan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash maqsadli kechishini ta'kidlash lozim. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur masalalarga e'tibor berishlari tavsiya etiladi.

"Musika madaniyati" o'quv fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor

¹¹ Qarang: Jabborova o., Umarova Z. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. //TVCHDPI "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasining o'quv resurslari banki..

berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) bolalar musiqasi, raqsi va ashulalari bilan o'quvchilarni to'liq tanishtirish;
- 2) milliy va jahon xalqlari bolalar musiqa san'ati namunalari bilan uyg'un tanishtirish;
- 3) har bir o'quvchining biror cholg'uda ijro etish ko'nikmasini shakllantirish;
- 4) bolalarning musiqiy-estetik ongini shakllantirish.

Bunday yondashuv "Musika madaniyati" o'quv fani vositasida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Madaniyat va san'at sohaslarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan "Musika madaniyati" o'quv fanini o'qitish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

- har bir o'quvchini kamida bitta musiqa cholg'usini ijro eta olishga o'rgatish;
- har bir o'quvchining ashula kuylash ko'nikmasini dastlabki bosqichda shakllantirish;
- har bir o'quvchida raqsga tusha olish ko'nikmasini tarkib toptirish;
- o'quvchilarni milliy musiqa san'atining asoslari bilan dastlabki bosqichda tanishtirish;
- ularning barchasida Amaliy to'garaklar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish.

Bunday yondashuv Musika madaniyati fani asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi va o'quvchilarning estetik didi, tuyg'usi hamda ongini maqsadli shakllantirish imkonini beradi.

"Tasviriy san'at" o'quv fanini o'qitish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- 1) o'quvchilarning estetik iqtidorini rivojlantirish;
- 2) tasviriy san'atga moyil o'quvchilar bilan alohida ishlash;
- 3) o'quvchilarning tasviriy san'at asarlarini tushunishga o'rgatish;

4) o'quvchilarning badiiy idrokini shakllantirish.

Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik iqtidorini rivojlantirish aynan boshlang'ich ta'limdan boshlanadi va keyingi ta'lim bosqichlarida mazkur iqtidor layoqati rivojlantirib boriladi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish samarali hisoblanadi:

- o'quvchilarning esteti didi, his-tuyg'usi va layoqatini shakllantirish;
- o'quvchilarda go'zallikka bo'lgan his-tuyg'uni uyg'otish;
- o'quvchilarda go'zallikdan zavqlanish va go'zallikka intilish maylini uyg'otish;
- o'quvchilarning go'zallikka bo'lgan munosabatlarini yo'naltirish.

Bunday yondashuv ta'limning keyingi bosqichlari uchun o'ziga xos poydevor hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'atga bo'lgan moyilligini aniqlash va bunday o'quvchilar bilan alohida ishlash taqozo etiladi. Bunda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

- o'quvchilarni rasm chizishga o'rgatish va qiziqitirish;
- o'quvchilarni ranglarning xususiyatlari va ularni bir-biriga qo'shish bilan yangi rang hosil qilishni o'rgatish;
- o'quvchilarda rangtasvir jihozlari bilan ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish;
- tasviriy san'at namunalari yaratuvchi o'quvchilarni rag'batlantirib borish va yo'naltirish.

Diqqat qilinsa, bularning barchasi o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan moyilligini to'g'ri rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tasviriy san'at asarlarini tushunishga o'rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarni tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- rang va bo'yoqlarning ma'nolarini tushuntirish;
- tasvirdagi hodisalarning mazmuni bo'yicha tushunchalar berish;
- tasvir etiladigan har bir elementning ma'noga ega ekanligini anglatib borish (masalan, tasvirlangan yashil rangdagi yetuk daraxt hayot ma'nosini anglatadi);

o'quvchilarni o'zi chizayotgan tasvirni tushuntirib berishga o'rgatish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini tasviriy san'at asarlarini va ularning mazmunini tushunishiga yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy idrokini shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- 1) his etish va tasavvur qilishga o'rgatish;
- 2) tasvirdan tushunganlarini ifodalashga o'rgatish;
- 3) tasviriy san'at asarlarini yozma tahlil qilishga ko'niktirish;
- 4) o'quvchilarda xotirani rivojlantirish.

Bu hol boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy idrokini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatlarini beradi.

E'tibor berilsa, "Tasviriy san'at" o'quv fanini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning imkoniyatlari keng. Ta'kidlab o'tish lozimki, mamlakatimizda tasviriy san'at va badiiy ta'limga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyat yuritilmoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini mazkur ta'lim muassasalariga ham tayyorlash taqozo etiladi. Shuningdek, pedagog olimlarning tajribasiga ko'ra, o'quvchilarda tasviriy san'at asarlarini yaratish layoqati aynan boshlang'ich ta'limda namoyon bo'ladi. Ta'limning keyingi bosqichlarida esa bu layoqat umumiy tarzda rivojlanadi, shu.

"Texnologiya" o'quv fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'quvchilarni mehnatga ko'niktirish;
- 2) o'quvchilarni dizayn asoslari bilan dastlabki bosqichda tanishtirish;
- 3) o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish;
- 4) o'quvchilarning yaratuvchilik ko'nikmasini rivojlantirish.

Mazkur imkoniyatlar "Texnologiya" o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

"Texnologiya" o'quv fani mamlakatimizda yangi predmetlardan biri bo'lib, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mazkur o'quv fani mehnat, dizayn va ijod

sohalarini qamrab olgan. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatga ko'niktirishda quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

- mehnatning mazmuni va uning inson hayotida tutgan o'rnini tushuntirish;
- o'quvchilarni halol va mustaqil mehnat qilishga ko'niktirish;
- o'quvchilarning tadbirkorlik tuyg'ularini shakllantirish;
- o'quvchilarda mehnatsevarlik ko'nikmasini tarkib toptirish.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnatning mazmunini tushunishi va mehnat tufayli insonning baxtga erishishi mumkinligini anglab olishiga tayanch hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini dizayn asoslari bilan ham dastlabki bosqichda tanishtirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- mahsulot va jihoz yaratiladigan ashyolar bilan tanishtirish;
- har bir mahsulotning va jihozning go'zallik talablariga javob berishini tushuntirish;
- yaratilgan mahsulot va jihozlarning insonda estetik munosabat uyg'otishini o'rgatish;
- dizayn asosida turli jihozlar yasashga ko'niktirish.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini dizayn asoslari bilan maqsadli tanishtirish imkoniyatlarini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish ham "Texnologiya" o'quv fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilarning ijodiy layoqatini aniqlab olish va Shunga asosan ularni ijod turlariga yo'naltirish;
- o'quvchilarning ijodiy asarlari tanlovlarini muntazam o'tkazib borish;
- ijodiy layoqatga ega o'quvchilar bilan imkon qadar alohida ishlash;
- o'quvchilarning ijodiy faoliyatini ma'naviy rag'batlantirib borish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yaratuvchilik ko'nikmasini rivojlantirish ham mazkur fanning vazifalaridan hisoblanadi. Buning

uchun quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

- o'quvchilarni konstruktorlik va texnik jihozlar asoslari bilan tanishtirish;
- o'quvchilar yaratgan turli ishlanmalarning ko'rgazmalarini tashkil qilib berish;
- layoqatli o'quvchilarning yaratuvchilik ko'nikmasini to'g'ri yo'naltirish;
- o'quvchilarda yaratuvchilik ko'nikmasini tarkib toptirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va ularning imkoniyatlaridan foydalanish bilan o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga kutilgan darajada tayyorlashga erishish mumkin.

O'quv fanlarini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda ularda ko'nikmalarni shakllantirilganligiga alohida e'tibor berish lozim. Hozirdan, mamlakatimiz 2023-2024-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida butun dunyoda e'tirof etilgan quyidagi ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish birlamchi vazifa sifatida belgilangan:


- a) kommunikatsiya ko'nikmasi;
- b) kufbaratsiya ko'nikmasi;
- v) kreativlik ko'nikmasi;
- g) kreativizm ko'nikmasi.¹¹

44. modelni nomini olgan bu ko'nikmalar Buyuk Britaniyaning Kentri kolleji pedagog olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, butun dunyoda e'tirof etilgan va u mamlakatimizda Prezident ta'lim muassasalarida sinodan o'tkazilgan. Ta'kidlab o'tilganidek, bu model bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish 2023-2024-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash jarayonida ularda mazkur ko'nikmalarni shakllantirish ham o'quv fanlarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Unga ko'ra, kommunikatsiya – bu

¹¹ "Mazkur" rasmiy 2023 йил 1 сентябрь кун.

ta'lim sharoiti va muhitidan foydalanish ko'nikmasi; kollobaratsiya – bu o'quvchilarning guruh va jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi; kreativlik – bu o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmasi va kretitsizm esa – bu o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasidir. Shu ma'noda 3-4-sinf o'quvchilarini o'quvchi fanlari vositasida mazkur ko'nikmalar bilan qurollantirish ularni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash samaradorligini oshiradi.

E'tibor berilsa, aniq, tabiiy va gumanitar fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlash mumkin. Mazkur metodikaga e'tibor bering:



3-rasm. O'quv fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasi

Mazkur metodika asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash qulay hisoblanadi. Buning uchun o'quv fanlarining o'qituvchilari faol bo'lishi va o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi taqozo etiladi. Bu jarayon Sinf rahbari tomonidan muvofiqlashtirilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur masala bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich ta'lim fanlarini turkumlashtirib o'qitish bilan o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga kutilgan darajada tayyorlash mumkin.

2. Bunda tabiiy, aniq va gumanitar o'quv fanlarining boshlang'ich

ta'limda turkumlashtirib o'qitish samarali hisoblanadi va bunday yondashuv fanlarni o'zaro bog'liqlikda o'qitishni tarkib toptiradi.

3. Boshlang'ich ta'lim fanlari turkumlashtirib o'qitilsa o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni kuchayadi va boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga kutilgan darajada tayyorlash imkoniyatlariga ega bo'linadi.

3.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya jarayonida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasi

Millatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichining imkoniyatlari kengayib bormoqda. Shu jihatdan tarbiya jarayoni vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash muhim hisoblanadi. Bu o'rinda mazkur masalaning ixtisotiga e'tiboringizni tortamiz.

Tarbiya – bu shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan harakatlar tizimidir.¹¹ Shu jihatdan tarbiyaviy tadbirlar maqsadli, o'z vazifasiga ega va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tarbiya jarayoni vositasida tayyorlash. Mazkur masala bo'yicha tarbiyaviy tadbirlarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlar vositasida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash uchun quyidagilarga *amal qilish* kutilgan samarani beradi:

- 1) o'quvchilarning axloqiy ongini shakllantirish;
- 2) o'quvchilarning ijtimoiy faolligini tarkib toptirish;
- 3) o'quvchilarning o'zgalarga munosabatini shakllantirish.

O'quvchilarning *axloqiy ongini* shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirish samarali hisoblanadi:

- 1) o'quvchilarni insoniy fazilatlarga ko'niktirish;
- 2) o'quvchilar ongini yot g'oyalardan himoya qilish;
- 3) o'quvchilarning axloqiy madaniyat ko'nikmasini tarkib

¹¹ Маматова Ж. ва бонналар. Педагогика фанидан изоҳли лугат. –Т.: “Фан ва технология”, 2009. 449-бет.

toptirish.

Bunday yondashuv o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda samarali hisoblanadi, Chunki axloqiy ongi shakllangan boshlang'ich sinf o'quvchisi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida o'zi o'qigan maktabning munosib vakili sifatida faoliyat yuritadi. Negaki o'quvchilarning insoniy fazilatlariga ega bo'lishi ularning bilim va o'quv – tarbiya jarayonida o'zlashtirishni kutilgan darajada amalga oshirish uchun asos bo'ladi; o'quvchilar ongini yot g'oyalardan himoya qilish bilan ularda g'oyaviy immunitet tarkib toptiriladi va o'quvchilarning axloqiy madaniyat ko'nikmasini shakllantirish bilan ularni ta'limning keyingi bosqichlariga axloqli shaxs sifatida tayyorlashga erishiladi. E'tibor berilsa, bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy ongli shaxslar sifatida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga munosib tayyorlash imkoniyatlarini beradi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlash uchun ularni *ijtimoiy faollashtirish* muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy faollik – bu o'quvchilarning jamoatchilik bilan faol munosabatga kirishishi va ta'lim-tarbiya jarayonida tashabbus bilan faoliyat yuritishidir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy faollashtirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- o'quvchilar bilan individual ishlash;
- sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;
- o'quvchilarning tashabbuslarini o'rganib borish;
- o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish.

O'quvchilar bilan individual ishlash natijasida ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirib borish imkoniyatiga ega bo'linadi; sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning imkoniyatlari Shu bilan belgilanadiki, ular vositasida o'quvchilarning ijtimoiy ongi rivojlantiriladi va o'quvchilarda jamoatchilik bilan munosabatga kirishish ko'nikmasi paydo bo'ladi; o'quvchilarning tashabbuslarini o'rganib borish bilan ularning maqsad – muddolari o'z vaqtida aniqlanishiga erishiladi, bu hol ularning yanada faol bo'lishiga turtki beradi va o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish ularning o'ziga nisbatan ijtimoiy ishonchini tarkib toptiradi. Bularning

barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ijtimoiy jihatdan munosib tayyorlash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda ularga *o'zgalarga munosabat* ko'nikmasini to'g'ri shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tarbiya jarayonida quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilarning "men" tuyg'usini to'g'ri shakllantirish;
- o'quvchilarning o'zgalarga nisbatan e'tiborli bo'lish ko'nikmasini tarkib toptirish;
- o'quvchilarda hamisha o'ziga yordam berish ko'nikmasini rivojlantirish;
- o'quvchilarda insonparvarlik fazilatini tarkib toptirish.

O'quvchilarning "men" tuyg'usini to'g'ri shakllantirish uchun ularning his-tuyg'ularini yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida egoizm, faqat o'z manfaatini o'ylash kabi tuyg'ular ham aynan Shu davrda tarkib topa boshlashi ma'lum; o'quvchilarning o'zgalarga nisbatan e'tiborli bo'lish ko'nikmasi ularning kelgusi faoliyati va hayotida muhim o'rin tutadi, Shu sababli bu ko'nikma boshlang'ich ta'lim jarayonida shakllantirilishi samarali hisoblanadi; o'quvchilarda hamisha o'ziga yordam berish ko'nikmasini shakllantirish bilan ularni jamiyat sharoitlariga mos shaxslar sifatida voyaga yetkazishga erishiladi va o'quvchilarda insonparvarlik fazilatini tarkib toptirish bilan ularning fidoyi, bardoshli hamda sabrli shaxs sifatida voyaga yetishiga erishiladi. E'tibor berilsa, bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarning ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning muhim negizlaridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya turlari vositasida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari eng avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun notanish tarbiyaviy muhit bilan xarakterlanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya jarayoni vositasida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash uchun ular aqliy, jismoniy va ruhiy jihatdan dastlabki bosqichda tarbiyalanishi kerak. Bunda aqliy tarbiyani amalga oshirish uchun quyidagilarga e'tibor

berish samarali hisoblanadi:

- o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish;
- o'quvchilarga o'quv fanlari kesimida bilim berish;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy tarbiyani maqsadli amalga oshirish imkonini beradi. Chunki bilimga asoslanish shaxsning aqlini o'stirishi pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlab o'tilganligi ma'lum.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ruhiy tarbiyalashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilarda o'ziga ishonch ruhini uyg'otish;
- o'quvchilarda ruhiy ko'tarinkilikni tarkib toptirish;
- o'quvchilarning ruhiy chiniqishini amalga oshirish.

E'tibor berilsa, ruhiy tarbiyada o'quvchilar bilan teng va hamkorlikda ishlash taqozo etiladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida ruh tuyg'usi o'suvchan xarakterda bo'ladi. Shu sababli mazkur toifa o'quvchilar ruhiyatida o'zgarish tez amalga oshadi. Bu holdan ulardan ruhiy chiniqtirish vositasida olib chiqiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiyalashda quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani berishi lozimligini ta'kidlash joiz:

- o'quvchilarni jismoniy chiniqtirish;
- har bir o'quvchini bolalar sportining biror turiga o'rgatish;
- har bir o'quvchini sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilishga odatlantirish.

Bunday yondashuv o'quvchilarni jismoniy jihatdan to'g'ri tarbiyalash imkoniyatini beradi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan to'g'ri tarbiyalash ularni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlash asoslaridan biridir. Shu sababli boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy yetuk, ruhiy barkamol va jismoniy sog'lom voyaga etishi ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash negizlaridan hisoblanadi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan oqilona tarbiyalash faqat maktabda amalga oshiriladi. Buning quyidagi sabablari bor: birinchidan, har xil sharoitga ega oilalar bunday tarbiyani kutilgan

darajada amalga oshira olmaydi; ikkinchidan, maktabda bu tarbiya turi pedagogik, psixologik va ijtimoiy qonuniyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, mazkur tarbiya professional o'quvchilar tomonidan amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi. Chunki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining barchasi aqliy yetuk, ruhiy sog'lom va jismoniy chiniqqan o'quvchilarga shartiy sezadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini maqsadli tarbiya vositasida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash zaruriyatini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya metodikasi vositasida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish vositasida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning metodikasi ana shunday xususiyatlarga egaligi bilan e'tiborni tortadi. Bunda asosiy maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyali shaxs sifatida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashdan iborat bo'lishi kerak. Chunki boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshirilgan tarbiya jarayonining darajasiga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning faoliyatiga qarab baho beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tarbiya metodikasi asosida tayyorlash muhim ahamiyatga egadir, shu ma'noda mazkur masalada quyidagi tarbiya metodikalariga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) notanish tarbiya muhitida faoliyatga ko'niktirish metodikasi;
- b) notanish tarbiya sharoitiga moslashtirish metodikasi;
- v) notanish tarbiya vaziyatlariga tayyorlash metodikasi.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda mazkur ta'lim muassasalaridagi notanish tarbiya muhitiga o'quvchilarning ko'niktirilishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar nisbatan o'ziga xos bo'lgan tarbiya muhitida faoliyat yuritadi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida esa o'quvchilar guruhining yangi ekanligi va bunday ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlarga egaligi notanish tarbiya muhitini tarkib toptiradi. Shu sababli 3-4-sinflarda turli mashqlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari notanish tarbiya muhitida faoliyat ko'rsata olish ko'nikmasiga o'rgatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning

uchun o'quvchilarda o'zgalar bilan kirishimlik, yangi jamoadan cho'chimaslik, o'z fikrini himoya qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish bilan ular notanish tarbiya muhitiga tayyorlanadi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi o'quvchilar guruhiga tez kirishadi, biroq yangi o'qituvchilar bilan munosabatga kirishishda murakkabliklarga duch keladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida imkon qadar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'qituvchilarining suhbatlari, mashg'ulotlari va uchrashuvlarini tashkil qilib borish amaliy samarani beradi. Bunda loaqal masofaviy ta'lim vositasida bunday tadbirlarni amalga oshirish va unda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining notanish tarbiyaviy muhitiga tayyorlash ishini pedagogik jihatdan ta'minlashini eslatib o'tish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari kelgusida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining notanish tarbiya sharoitiga ham moslashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining tarbiyaviy sharoiti boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi a'zolari tomonidan o'rganilib, unga o'quvchilarning moslashtirish yo'llarini amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Misol uchun, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'zlarining qiziqishi va layoqatiga ko'ra bilim olish jarayoniga tez moslashadi. Biroq bunday ta'lim muassasalaridagi ba'zida murakkab, ba'zida esa tabiiy bo'lgan notanish tarbiya sharoitiga moslashishi qiyin kechadi. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tarbiya sharoitini tez anglash, bunday sharoitda mustaqil harakat qilish va o'zini yangi jamoaga tez moslashtirish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan ularni notanish tarbiya sharoitiga moslashtirish mumkin. Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, ba'zi o'quvchilar bir chorak davomida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalaridagi tarbiya sharoitiga moslashish jarayonini boshdan kechiradi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarni turli tadbirlar vositasida notanish tarbiya sharoitiga moslashuvchanligini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir. Umuman bizning yondashuvimizga binoan boshlang'ich sinf o'quvchilari bunday tarbiya muassasalarining tarbiya sharoitiga tez moslashishi kerak. Aks holda ularning o'zlashtirish jarayonida kamchiliklar kelib

chiqadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga turli notanish vaziyatlar sodir. Chunki har biri ixtisoslashgan ta'lim muassasasining tarbiya masalasiga doir o'ziga xos yondashuvlari mavjud. Shu jihatdan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida turli tarbiyaviy vaziyatlar mavjud bo'ladi. Bunday vaziyatlarda o'quvchilarning o'zaro munosabatlari, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat, o'quvchi va ta'lim muassasasi jamoasi o'rtasidan munosabat, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi kabi munosabatlarda nisbatan yangi vaziyatlar mavjud bo'lib turadi. Negaki bu ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor bilim berishga qaratilganligi bois tarbiyaviy vaziyatlarning turli xil bo'lishi yuzaga keladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar ko'proq murakkab vaziyatlarga ko'niktirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun aniq tabiiy va gumanitar fanlar o'qituvchilarining faol bo'lishi kutilgan samarani beradi.



4-rasm. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish vositasida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasi

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tarbiya metodikasi asosida tayyorlanishi ham dolzarb bo'lib turibdi. Bunda o'quvchilarni notanish tarbiya muhitida faoliyat ko'rsatish, notanish tarbiya sharoitiga moslashish

va o'z faoliyatidan qoniqish xususiyatlarini tarkib toptirish bilan muammoning amaliy imkoniyatlariga ega bo'lish mumkin. Eslatib o'tish joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash muammosi yangi bo'lib, uning nazariy va metodik asoslari oliy pedagogik ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi tomonidan ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirish vositasida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodikasi muhim omillarga ega. E'tibor bering:

Mazkur tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni va tadbirlarning imkoniyatlari keng bo'lib, ular vositasida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlash mumkin.

2. Bu jarayonda o'quvchilarning axloqiy ongini, ijtimoiy faolligini va o'zgalarga munosabat ko'nikmasini shakllantirish bilan ular ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanadi.

3. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar boshlang'ich ta'limda amalga oshirilgan tarbiya jarayonini namoyon qiladi.

2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning amaliyot metodikasi

Boshlang'ich ta'limning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri bu ta'lim va tarbiya jarayonining amaliy asoslariga erishishdir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash *amaliyoti* muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotimizning avvalgi qismlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv fanlarini o'qitish jarayonida va tarbiya jarayonida tayyorlash masalalari tahlil etilgan edi. Bu ikki yondashuvning samarali bo'lishi uchun tayyorlash amaliyotiga e'tibor berish muhim o'rin tutadi. Bunda asosiy maqsad—boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy tayyorlashdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirish ta'lim muassa-

lasiga tayyorlashning o'quvchilar faoliyatidagi amaliyoti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga tayyorlashda mazkur ishning amaliyoti masalasini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning amaliyoti asoslarini bizning yondashuvimizga ko'ra, quyidagilar tashkil etadi:

- 1) o'quvchilarni yo'naltirish;
- 2) o'quvchilarni qiziqitirish;
- 3) o'quvchilarni tayyorlash ishini monitoring qilib borish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy jihatdan yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- 1) o'quvchilarning layoqatini aniqlash;
- 2) o'quvchilarning layoqatini rivojlantirish;
- 3) o'quvchilarni layoqatli shaxslar sifatida voyaga yetkazish.

O'quvchilarning layoqatini aniqlashda ular bilan suhbatlashish va berilgan topshiriqlarni qanday bajarganligini tahlil qilish metodlari muhim hisoblanadi, bu ikki metod asosida o'quvchilarning layoqati va uning darajasini kutilgan darajada aniqlash mumkin; o'quvchilarning layoqatini rivojlantirishda o'quv fanlari va tarbiya jarayoni imkoniyatlaridan foydalanish metodlari samarali hisoblanadi, mazkur ikki metod asosida o'quvchilarning layoqatini ilmiy-pedagogik jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari mavjud; o'quvchilarni layoqatli shaxslar sifatida voyaga yetkazishda ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish va fikrini ifodalay olishga ko'niktirish metodlari juda samarali hisoblanadi, ushbu ikki metod vositasida o'quvchilarni layoqatli shaxslar sifatida tayyorlash imkoniyatlari keng. E'tibor berilsa, o'quvchilarning layoqatini aniqlash, rivojlantirish va ularni layoqatli shaxs sifatida voyaga yetkazish bilan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy tayyorlashga erishiladi. Buning uchun o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbari faol ishtirokchisi kerak.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlashda *qiziqitirish* omili muhim ahamiyatga ega. Bu omildan ko'p hollarda faqat bilim olish jarayonida foydalaniladi. Aslida boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni barcha

masalalarga qiziqtirish omilidan muvaffaqiyatli foydalanish kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy tayyorlash jarayonida qiziqtirish omilidan quyidagicha foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash;
- o'quvchilarni qiziqishlari bo'yicha o'qituvchilarga biriktirish;
- o'quvchilarda qiziqish tuyg'usini munosib tarkib toptirish.

O'quvchilarning qiziqishlarini aniqlashda "Men yaxshi ko'rgan kasb" mavzusida bayon va insho yozdirish metodi muhim ahamiyatga ega, Chunki o'quvchilar 3-4 sinflarda bayon va insho yozish bilan keng shug'ullanishadi; o'quvchilarni qiziqishlari bo'yicha o'qituvchilarga biriktirishda o'quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar turkumlarga bo'lish metodi muhim ahamiyatga ega, Chunki o'quvchilarning qiziqish doirasi aynan ana shu turkumli fanlarga mos ravishda namoyon bo'ladi; o'quvchilarda qiziqish tuyg'usini munosib tarkib toptirishda ularni guruhlariga bo'lib ishlash metodi kutilgan samarani beradi, negaki o'quvchilar o'z qiziqishlari nuqtai nazaridan bir-birlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Diqqat qilinsa, qiziqish omilining imkoniyatlaridan foydalanish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy jihatdan samarali tayyorlashga erishish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash amaliyotida *monitoring* mexanizmi muhim o'rin tutadi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- amaliy rejaga ega bo'lish;
- tayyorlash jarayonini kuzatib borish;
- har bir sinf oxirida tayyorlash natijalarini tahlil qilish.

O'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash uchun amaliy rejaga ega bo'lishi taqozo etiladi, Chunki rejasiz bu ishni amalga oshirish murakkab kechadi; o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga rejali tayyorlab borish jarayoni kuzatilishi kerak, Chunki tayyorlash jarayonining samaradorligi aynan kuzatuv vositasida aniqlanadi va yuzaga kelgan muammolar bartaraf etiladi; har bir sinf yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarini

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash natijalari tahlil qilinishi kerak, bu bilan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'linadi va kelgusi sinfda amalga oshiriladigan rejaning yo'nalishlariga ega bo'linadi. Diqqat qilinsa, monitoring mexanizmi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda muhim amaliy omillarni beradi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash amaliyoti hozircha shakllanmagan. Chunki bugungi kunga qadar boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiy o'rta ta'limga tayyorlanib kelgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda turli ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Shu sababli bizningcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlash uchun quyidagi amaliyot mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari mavzularini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari dasturlarini nazarga tutgan holda takomillashtirib borish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash guruhini tuzish va bu guruh sinf rahbari boshchiligidagi ism asosida faoliyat olib borish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarini 3-sinfdan boshlab ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash.

Bu mexanizmga amal qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarini amaliy jihatdan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash jarayonini kuchaytiradi. Shu sababli bizningcha, bunday mexanizm boshlang'ich ta'lim bosqichida ommalashtirish taqozo etiladi. Shu jihatdan mazkur masala tashkiliy asosda yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning sinf faoliyatidagi amaliyoti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda sinf faoliyatidagi amaliyoti muhim o'rin tutadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1) boshlang'ich ta'limning samaradorligini ko'rsatadi;
- 2) boshlang'ich sinflarning amaliy ko'rsatkichlarini belgilaydi;
- 3) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat natijasini

namoyon qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda mazkur faoliyat boshlang'ich ta'lim samaradorligini yaqqol ko'rsatadi. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining o'qitish jarayoni va tarbiyaviy tadbirlarning samaradorlik ko'rsatkichlari namoyon bo'ladi. Agar boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari davlat ta'lim standartlari va talablari asosida o'qitilsa, o'quvchilar tabiiy ravishda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga bilim jihatidan tayyor bo'ladi. Bordi-yu muayyan o'quv fani kutilgan darajada o'qitilmasa o'quvchilarning tayyorgarlik ko'rsatkichlari pasayadi va shu fanning o'qitish asoslarini hamda metodikasini o'zgartirishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'lim jarayonida turli tadbirlar vositasida o'quvchilarning tarbiyalanishi ma'lum. Aynan tarbiya konteksti boshlang'ich sinf o'quvchilarining ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida to'laqonli faoliyatda bo'lishiga asos bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash vositasida mazkur ta'lim bosqichining samaradorligini o'rganib borish va baholash muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda sinf faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi bilan diqqatni tortadi. Unga ko'ra, sinfda ta'lim va tarbiya jarayoni to'g'ri tashkil qilinishi, muayyan mavzular yoki o'quv fanlarining chuqurlashtirilib o'qitilishi va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yuksaltirib borish taqozo etiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari bir necha sinflardan iborat. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limning har bir sinfida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorlash ko'rsatkichlari asosida shu sinflarning samaradorligini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki keyingi paytlarda boshlang'ich ta'lim maktabgacha va ta'limning keyingi bosqichlari hamda turlari o'rtasida strategik ta'lim tizimi sifatida qabul qilinmoqda. Shu jihatdan har bir boshlang'ich sinf faoliyat samaradorligi muayyan jihatdan o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash nuqtai nazaridan ham baholab borilishi bugungi kundagi muhim masalalardan biridir. Buning uchun Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va metodikalarga

o'rgatish milliy tadqiqot instituti tomonidan maxsus metodika ishlab chiqilishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash amaliyotida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat natijadorligiga ham baho berish namoyon bo'ladi. Unga ko'ra, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ta'lim, tarbiya va amaliy jihatdan tayyorlash bo'yicha muayyan faoliyat olib boradi. Bugungi kunda misol uchun, Matematika o'quv fani bo'yicha o'quvchilarni Respublika va xalqaro olimpiadalarga tayyorlash, chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash tajribasi mavjud. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik fikrlash va tafakkur kutilgan darajada tarkib topmoqda. Ayni paytda, tabiiy va gumanitar fanlar boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash ishi bilan ham shug'ullanishi dolzarb bo'lib turibdi. Chunki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining nisbatan ko'pchiligi matematika, qobiliyat va tafakkurni rivojlantirishga ixtisoslashgan. Demak, tabiiy va gumanitar fanlar o'qituvchilari faoliyatida o'quvchilarni ixtisoslashtirgan ta'lim muassasalariga tayyorlash yangi vazifa paydo bo'ldi. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash vositasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ham faoliyat samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

Umumiy qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash amaliyotida sinf faoliyati ko'rsatkichlarini aniqlash va baholashda muhim tizimlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga uchun amaliyot. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash amaliyotida mazkur ta'lim muassasalariga uchun ham muhim tizim mavjud. Bunga quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- 1) muayyan layoqatga ega o'quvchilarni qabul qilish;
- 2) pedagogik va psixologik talablarga javob beradigan o'quvchilarga ega bo'lish;
- 3) maxsus dasturlar asosida bevosita o'quv jarayonini boshlash.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari qiziqish va layoqatga ega bo'lgan o'quvchilarni qabul qilish xususiyatiga ega. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqati boshlang'ich ta'lim jarayonida kutilgan darajada rivojlantirilishi kerak. Aks holda boshlang'ich sinf o'quvchisi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida faoliyatga kirishishda murakkabliklarga duch keladi, ularning ta'limiy va tarbiyaviy moslashishi qiyin kechadi, buning natijasida o'quvchilarning bunday ta'lim muassasalaridan to'laqonli faoliyat ko'rsatishi yuzaga kelmaydi. Shu ma'noda bugungi kunda boshlang'ich ta'limning yangi vazifalaridan biri o'quvchilarni layoqat nuqtai nazaridan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashdan iborat. Chunki bunday muassasalar o'quvchi shaxsini tez voyaga yetkazishi va uning ta'lim ehtiyojini talab darajasida amalga oshirishi bilan ahamiyatga egadir.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari pedagogik va psixologik ko'nikmalarga ega o'quvchilarni qabul qilishi va bunda maxsus sinovlarni o'tkazishi ma'lum. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim, ko'nikma va malakaga asoslangan pedagogik talablarga javob berishi, psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun muhim o'rin tutadi. Shu sababli bugungi kunda maktab psixologlari mazkur vazifa bilan Shug'ullanishi taqozo etilmoqda. O'zbekiston psixologlar assotsiatsiyaning fikriga ko'ra, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbiy yetuk psixologlar yetishmaydi. Bu hol boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash masalasida ham murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktab psixologlarini tayyorlashda pedagogik psixologiya qonuniyatlariga qat'iy asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.


Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida yo'nalishlar bo'yicha bevosita maxsus dasturlar asosida ta'lim va tarbiya jarayoni amalga oshiriladi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari maxsus dasturlar asosida ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak. Shu sababli mamlakatimizda 2023-2024-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablariga Prezident ta'lim muassasalari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv reja va metodikalari joriy etila boshlandi. Buning natijasida boshlang'ich

sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash jarayoni mazkur ta'lim muassasalariga muvofiqlashadi. Natijada bu ta'lim muassasalari bevosita maxsus dasturlar asosida ta'lim jarayonini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash amaliyoti muhim xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi.

Zero boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash masalasi va uning amaliyoti oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu masala boshlang'ich ta'limning yangi vazifalari tarkibiga kiradi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash amaliyoti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Unga amal qilishi bilan qo'yilgan maqsadga erishish mumkin. E'tibor bering!



3-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash amaliyoti asoslari

Mazkur masala bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy tayyorlash muhim o'rin tutadi.
2. Mazkur jarayonda o'quvchilarni yo'naltirish va qiziqtirish

hamda amalga oshiriladigan ishlarni monitoring qilib borish muhim ahamiyatga ega.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga 3-sinfdan boshlab amaliy tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi va bunda Sinf rahbari boshchiligidagi guruh faoliyati yo'lga qo'yilishi kerak.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash metodologiyasini belgilab olish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan bu borada dastlabki metod sifatida o'quv fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash idrok etiladi. Chunki aniq, tabiiy va gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'qitish jarayoni o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining turlariga mos tayyorlash imkonini beradi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning navbatdagi metodi bu—tarbiya jarayonida tayyorlashdan iborat. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashi, axloqiy fazilatlar va o'zgalarga munosabatlarini maqsadli tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'limining tarbiyaviy holatini namoyon qiladi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashdagi yana bir metodika bu—amaliyotdir. Bunda o'quvchilar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida faoliyati, ularning o'quv jarayoni va tarbiyaviy ishlari to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli amaliyot metodikasiga asosan o'quvchilarni tayyorlash kutilgan samarani beradi.

III BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARIGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARI

3.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirgan ta'lim muassasalariga zamonaviy individual texnologiya asosida tayyorlash

"O'zbekiston-2030" strategiyasida 2030 yilga qadar boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish vazifasi qo'yilgan va bunda aynan boshlang'ich sinflarning olinganligiga sabab ushbu ta'lim tushunchasi ta'lim jarayonining tayanchi sifatida qabul qilinganligini bildiradi. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash vazifasi nafaqat ijtimoiy zaruriyat, balki yangi pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan mazkur masalada zamonaviy texnologiyalarga asoslanish YAngi O'zbekistonni barpo etish sharoitida dolzarb bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning *zamonaviy individual texnologiyasi* tahliliga tortamiz.

Zamonaviylik mazmuni. Bugungi kunda muayyan texnologiyalarni idrok etganda yoki ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish jarayoni to'g'risida so'z borganda "zamonaviylik" tushunchasini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mazkur tushuncha Yangi O'zbekiston g'oyasi mazmuniga mos tushadi va u an'anaviy hamda innovatsion tushunchalarni bog'lovchi mazmunga ega bo'ladi, ayni paytda zamonaviylik ta'lim texnologiyalarining muhim xususiyatlarini belgilovchi mezon hisoblanadi. Shu jihatdan zamonaviylik tushunchasining ma'no-mazmunini quyidagilar tashkil etishini e'tiborga o'tirish joiz:

a) zamonaviylik bugungi ta'lim texnologiyalarining hozirgi kun muammolarini yechish xususiyatlariga ega ekanligini anglatadi;

b) zamonaviylik tushunchasi ta'lim va tarbiyaning an'anaviy tajribalaridan bugungi kunda foydalanish va hozirgi kun ehtiyojlariga mos ravishda ularni joriy etish ma'nosini bildiradi;

v) zamonaviylik ta'limdagi innovatsion texnologiyalarning

bugungi kun muammolarini yechishga qodir ekanligi yoki emasligini baholovchi mezon hisoblanadi;

g) zamonaviylik ta'lim va tarbiya jarayonidagi hozirgi kun o'zgarishlariga tayangan holda jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim oluvchilarning manfaatlarini ro'yobga chiqarish yondashuvi hisoblanadi.

Shu jihatdan zamonaviylik deganda ta'lim va uning texnologiyalari jarayonidagi hozirgi kun muammolarini hal etish jarayonida foydalanish nazarda tutiladi. Har bir davrning o'ziga xos zamonaviyligiga mavjud bo'lishini eslatib o'tish joiz. *Bugungi davrning, ya'ni Yangi O'zbekiston davrining ta'lim va texnologiyalardagi zamonaviyligi ta'lim sifatiga erishishdagi bugungi kun muammolarini hal etishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni amalga joriy etish bilan belgilanadi.* Bunday yondashuv ta'lim texnologiyalarining juda ko'payib ketganligi sharoitida ularning eng maqbullaridan foydalanish asoslarini beradi.

Zamonaviy individual texnologiya imkoniyatlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy individual texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini belgilash dolzarb bo'lib turibdi. Chunki bunda ta'kidlab o'tilgan zamonaviylik tushunchasi ishlab chiqiladigan individual texnologiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilarini tez va oson shaklda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash xususiyatlarini ifodalaydi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda foydalaniladigan zamonaviy individual texnologiyalarning quyidagi asoslari va imkoniyatlarini ta'kidlab o'tish lozim:

1) umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'zlarining individual texnologiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashga jalb etish tizimini tarkib toptirish;

2) tanlangan bunday tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining maxsus kompyuterli dastur asosida "Ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorgarlik" individual kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqishda va undan foydalanib mazkur vazifani bajarishda oliy pedagogik ta'lim muassasasining hamkorligini yo'lga qo'yish;

3) ushbu "Ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorgarlik" individual

kompyuterli texnologiyasida quyidagilarni ifodalash:

a) boshlang'ich ta'lim bitiruvchilari qabul qilinadigan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui;

b) mazkur ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining kasbiy-ta'limiy yo'nalishi va uning o'qitish imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui;

v) boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilarini ushbu ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash dasturi, o'quv materiallari va mashg'ulotlari tavsifi, ularda ishtirok etish omillari;

g) bu maxsus individual kompyuterli asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini offlayn, onlayn va mustaqil ta'lim shakllarida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash mexanizmlari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui.

Ushbu tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchisining kompyuterli "Ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorgarlik" individual texnologiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ushbu ta'lim turlariga tayyorlash bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'linadi. Bunday imkoniyatlarning asosiy sifatlari sifatida quyidagilarni ta'kidlab ko'rsatish kerak:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining vaqt me'yorlari va imkoniyatlariga tayangan holda tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchisining "Ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorgarlik" individual kompyuterli texnologiyasi asosida mazkur ta'lim turlariga tayyorlanish;

2) mazkur tayyorgarlik jarayonining o'quvchilarning mustaqil tayyorgarligi va ularning faolligini rivojlantirishga yo'naltirilganligi imkoniyatlariga ega ekanligi;

3) ota-onalarning bevosita o'z farzandlarining ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tajribali o'qituvchining individual texnologiyasi asosida tayyorlanishini kuzatib borish imkoniyatining mavjudligi;

4) ushbu boshlang'ich sinf o'qituvchisining ushbu individual kompyuterli texnologiyasidan masofaviy ta'lim shaklida foydalanish va unda manfaatimiz miqyosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga maxsus va ommaviy tayyorlashda foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limning tajribali o'qituvchilarining zamonaviy individual texnologiyalarini kompyuterli dastur asosida

tarkib toptirish va uning vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash ishini bugungi kun talablari darajasida amalga oshirish imkoniyatlari mavjud.

"Ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorgarlik" individual kompyuterli texnologiyasi. Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida boshlang'ich ta'lim jarayoni va boshlang'ich sinf o'quvchilarining keyingi ta'lim turlariga ta'limiy, tarbiyaviy hamda amaliy jihatdan tayyorgarligi masalalariga yangicha yondashishlarni taqozo etmoqda. Shu jihatdan tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy individual texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha repetitorlik noan'anaviy ta'lim shaklining muqobili sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki repetitorlik noan'anaviy ta'lim shaklida moliya va moliyalashtirish masalalariga birlamchi omil sifatida munosabatda bo'linadi, bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining dastlabki qadamlaridanoq pullik to'lov asosida ta'limning keyingi turlariga tayyorlanish voqeligiga duch kelishi pedagogik nazariya nuqtai nazaridan nuqsonli hisoblanadi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim jarayoni va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiy-tarbiyaviy tayyorgarlik masalalarida repetitorlik kabi noan'anaviy ta'lim shakllarining jozibali imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan samarani bermaydi. Aksincha, bunday noan'anaviy ta'lim shakllarining muqobili sifatida tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy individual texnologiyalarini tarkib toptirish va yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining zamonaviy individual texnologiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda quyidagilarga qat'iy amal qiladi:

- a) davlat ta'lim standartlari va talablariga;
- b) boshlang'ich ta'limni tijoratlashtirmaslik tamoyillariga;
- v) boshlang'ich sinf o'quvchilarining munosabatlarida pedagogik qonuniyatlarga amal qilishga tarkib toptirishga;
- g) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash ishi jamiyat ehtiyojining asoslariga kirishiga.

Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy

individual texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash pedagogik nazariya va metodikaning talablariga mos tushadigan shakllardan turibdi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning tajribali o'qituvchilar individual texnologiyasi bu boradagi muhim zamonaviy shakllardan biridir. Klarkur masala bo'yicha ilmiy-metodik ishlanmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Klarkur masalada quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga zamonaviy individual texnologiya asosida tayyorlash keng imkoniyatlarni beradi. Bunda *zamonaviylik* tushunchasini ta'lim va tarbiyaning bugungi muammolarini hal etishga qaratilgan metodika va texnologiyalarning majmui sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy individual texnologiyalari tizimliligi, maxsus kompyuterli dasturga asoslanishi va "Ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorgarlik" individual kompyuterli texnologiyaga tayanishi bilan o'ziga xos imkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidlab o'tish kerak.

3. Maxsus dastur asosida ishlab chiqiladigan "Ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorgarlik" individual kompyuterli texnologiyasi davlat ta'lim standartlari va talablariga mos ravishda o'quvchilarni mazkur ta'lim muassasalariga samarali tayyorlash imkonini beradi. Shu sababli bunday texnologiyani oliy pedagogik ta'lim jarayonida tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi.

3.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirgan ta'lim muassasalariga zamonaviy raqamli texnologiya asosida tayyorlash

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash hozirgi zamon Pedagogika va Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fanlarining muhim vazifalari sarasiga kiradi. Chunki mamlatimizda o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim

muassasalariga tayyorlash metodikasi, nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlar kamchiligi mavjud. Bu hol mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi ta'lim turlarining yangilanganligi bilan bog'liqdir. Ayni paytda mazkur masalada yangi texnologiyalarga asoslanish ham dolzarb bo'lib turganligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga zamonaviy raqamli texnologiya asosida tayyorlash masalasi tahliliga tortamiz.

Raqamli texnologiya xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi "Raqamli texnologiya-2030" konsepsiyasida ta'lim tizimini raqamlashtirishning eng muhim vazifalari belgilanib amalga oshirilmoqda. Bunda quyidagilarga asoslanilayotganligi ta'limda raqamli texnologiyalarning xususiyatlarini belgilaydi:

1) kompyuterli dastur asosida o'quv adabiyotlari va topshiriqlarning elektron variantini yaratish hamda amaliyotga joriy etish;

2) boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlarini ixchamlashtirish va ularning mashg'ulotlarini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuterli dastur asosidagi mashg'ulotlardan istalgan vaqtda foydalanish mexanizmlarini joriy etish;

4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish va faoliyatga tayyorgarlik ko'nikmalarini kompyuterli dastur asosida baholash.

Mazkur asoslar mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim raqamli texnologiyalarining xususiyatlari va imkoniyatlarini ifodalaydi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablari muntazam ravishda zamonaviy kompyuter, ta'lim planshetlari va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlab borilmoqda. Shu sababli raqamli ta'lim texnologiyasi insonning salbiy ta'sir omilini susaytirish va o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, boshlang'ich ta'limda "Informatika va axborot texnologiyalari" hamda "Texnologiya" o'quv fani vositasida o'quvchilarning quyidagi ko'nikmalarini tarkib toptirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish lozim:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuter ta'lim plansheti va mobil aloqa vositalaridan o'quv-texnik asosda foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining Internet jahon tarmog'idan to'g'ri va aniq ma'lumotlarni olish hamda ular bilan ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli texnologiyalar asosida bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish;

4) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining O'qituvchi kitobini raqamli texnologiyalar asosida har o'quv yilida takomillashtirib borish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli texnologiyalar asoslari bilan qurollantirish imkonini beradi. Eslatib o'tish kerakki bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablari texnik imkoniyatlarga ega. Shu jihatdan mazkur vazifalarni amalga oshirishda informatika va axborot texnologiyalari o'quv fani o'qituvchilarining faol bo'lishlari taqozo etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning raqamli texnologiyasi. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limini jarayonida raqamlashtirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim masalalardan biri bo'lib, bunda shu ta'lim ko'rsatkichlariga erishish bilan bog'liqdir. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning raqamli texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masalada biz tomonimizdan ishlab chiqilgan quyidagi variantga e'tibor bering:

1) kompyuterli dastur asosida "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash texnologiyasi"ni shakllantirish;

2) mazkur texnologiyada quyidagi bloklar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish;

3) blok: boshlang'ich sinf o'quvchilari tayyorlanadigan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari ro'yxati va ularning ta'lim yo'nalishi to'g'risida ma'lumotlar;

4) blok: ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tomonidan qo'yilgan talablar va ularning sharhi;

5) blok: aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va o'quv materiallari;

6) blok: tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va o'quv materiallari;

5-blok: gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va o'quv materiallari;

6-blok: maxsus ta'limga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va o'quv materiallari;

7-blok: ijod maktablari ta'lim dasturlari va o'quv materiallari;

8-blok: amaliy fanlar (Tasviriy va grafika, Musiqa madaniyati fanlariga) ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va o'quv materiallari;

9-blok: robototexnika va dizayn ta'limiga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va o'quv materiallari;

10-blok: ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quv materiallarini o'zlashtirilgan doir metodik tavsiyalar va ko'rsatmalar majmui;

11-blok: ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanish bo'yicha beriladigan topshiriqlar majmui;

12-blok: o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholab borish mezonlari va mexanizmlari;

13-blok: o'zlashtirish jarayonini kuchaytirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va individual ta'lim bo'yicha ko'rsatmalar majmui;

14-blok: boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilarning o'zaro bog'lanish bloki;

15-blok: maxsus o'qituvchilar guruhi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorgarlik ko'rsatmalarini monitoring qilib borish.

Mana Shunday raqamli texnologiya asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini an'anaviy va masofaviy ta'lim shakllaridan foydalangan holda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash tezkor va kutilgan samarani berishi idrok etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli texnologiya bilan qurollantirish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda raqamli texnologiya imkoniyatlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda raqamli texnologiyalar keng imkoniyatlarni beradi. Shu sababli mazkur texnologiyaning biz tomonimizdan shakllantirilgan varianti quyidagilardan iborat:

1) ishlab chiqilgan texnologiyani boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy kompyuteri, ta'lim plansheti va mobil aloqa vositasiga yuklab berish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur texnologiyadan istalgan vaqtda foydalanishga yo'naltirish;

3) texnologiyadan foydalanish jarayonida bevosita o'qituvchilar bilan bog'lanish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;

4) texnologiyani o'rganish va o'zlashtirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil faoliyatiga asoslanish;

5) texnologiyani muntazam ravishda o'qituvchi tomonidan takomillashtirib borilishi.

Huquqsizliklar boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy tayyorlashning imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, masofadan turib mamlakatimizning eng chekka hududlarida istiqomat qiluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham o'zlashtirish va bayoatlar asosida ushbu texnologiyaga tayangan holda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash imkoniyati ham mavjud. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining hududlardagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qishga imkon qo'yishlari ortib bormoqda.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning raqamli texnologiyasi muhim amaliy imkoniyatlariga egadir.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy raqamli texnologiyasi amaliy imkoniyatlarga egaligi bilan muhim texnologiyalardan biridir. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'quvchilarni raqamli texnologiya asosida tayyorlash metodikasi bilan qurollantirish dolzarb bo'lib turibdi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida turli axborot texnologiyalarini o'zlashtiradi. Bunda ularni raqamli texnologiya bilan qurollantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki raqamli texnologiya bevosita kompyuter individual texnologiyasiga asoslanishi bilan axborot texnologiyalaridan farq qiladi. Bunda asosiy maqsad raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich

sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga kutilgan darajada tayyorlashdan iboratdir.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga zamonaviy raqamli texnologiya asosida tayyorlashning ilmiy va metodik omillarini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur masalada quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning raqamli texnologiyasi eng zamonaviy kompyuterli dastur asosida ishlab chiqiladi va bunda ushbu masala bo'yicha an'anaviy hamda masofaviy ta'lim vositasida o'quvchilarni tayyorlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

2. Biz tomonimizdan shakllantirilgan "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash kompyuterli texnologiyasi" 15 blok maxsus dastur asosida tayyorlangan. Bu texnologiyadan foydalanish butunlay yangi yondashuvlarga asoslanishi bilan amaliyotga yo'naltirilgandir.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda bunday raqamli texnologiyalar o'quvchilarning shaxsiy kompyuteri, ta'lim plansheti yoki mobil aloqa vositasi asosida amalga oshiriladi. Buning natijasida o'quvchilarda qiziqish va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tanlash ko'nikmasi maqsadli rivojlanib boradi.

3.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga xorijiy mamlakatlarning zamonaviy texnologiyasi asosida tayyorlash

Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi turlari va bosqichlariga tayyorlash yangi pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli bu borada yangi texnologiyalarni shakllantirish va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga xorijiy mamlakatlarning zamonaviy texnologiyasi asosida tayyorlash masalasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Eslatib o'tish joizki, xorijiy mamlakatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi turlari va bosqichlariga tayyor-

lash bo'yicha rang-barang texnologiyalarga asoslaniladi.¹⁴ Shu jihatdan bu o'rinda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim mazmuni va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xorijiy mamlakatlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi turlari va bosqichlariga tayyorlash bo'yicha *namunaviy texnologiyalari* tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Germaniyaning individual tayyorlash zamonaviy texnologiyasi. Yevropa mamlakatlari ichida Germaniya ta'lim tizimida boshlang'ich ta'limning rivojlanganligi alohida ajralib turadi. Shu ma'noda mazkur mamlakatning boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi turlari va bosqichlariga tayyorlashda *ixtisoslashtirilgan ta'lim* shakliga asoslanishini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bunda asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim asosida ta'limning keyingi turlariga tayyorlashda individual texnologiyaga tayaniladi. Bunday texnologiyaning mexanizmlari quyidagilardan iborat:

1) 3-sinfdan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat va qiziqishlari aniqlanib, ularni ixtisoslashtirilgan ta'limga yo'naltirish yo'lga qo'yiladi;

2) bunda ixtisoslashtirilgan ta'limning asosan robototexnika, texnik uskunalar bilan ishlash, kompyuter texnologiyasi va multimedia texnologiyalarga asoslangan ta'lim muassasalariga tayyorlashga asosiy e'tibor qaratiladi;

3) bunday tayyorlash jarayonida 3-4 nafar o'quvchilar guruhiga tayayilgan holda individual yondashuvga tayaniladi;

4) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga individual tayyorlash mashg'ulotlari asosan amaliy mashg'ulotlardan iborat va bunda o'quvchilar o'z qiziqishlari hamda yo'natishlari doirasida yangi ishlanmalar yaratish asoslarini o'rnatiladi;

5) mamlakatning ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida mavjud ixtisoslik o'quv fanlari ustuvor darajada o'qitiladi va umumta'lim fanlarining hisssasi 20% dan oshmaydi;

¹⁴ Карант Бордовская И. Зарубежная педагогика: опыт и методика. Москва, 2018. Таъдқиқотимизнинг ушбу параграфини тайёрлашда мазкур сайт ва www.pedagog.ru. Интернет тармоғи портали маълумотларидан фойдаланилди.

6) bunday individual texnologiya natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga amaliy tayyorlik ko'nikmasini tarkib toptirishga erishib kelinmoqda.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda quyidagi qoidalarga qat'iy amal qilinadi:

a) boshlang'ich o'quvchilarining qiziqish va layoqatlarini qat'iy hisobga olish;

b) ularni texnik va texnologik ta'limga asoslanuvchi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga tayyorlash;

v) ularning asosan texnik va texnologik amaliy tayyorgarlik ko'nikmasini tarkib toptirish.

Mazkur qoidalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari texnik va texnologik jihatdan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga tayyorlanadi. Shu sababli bu borada quyidagi individual ta'lim shakllaridan foydalanishini alohida eslatib o'tish joiz:

A) 3-4 nafardan o'quvchilar guruhi uchun individual mashg'ulotlar tashkil qilish;

B) o'quvchilarni boshlang'ich ta'limning tegishli mutaxassis o'qituvchilari va amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarga birlashtirish bilan amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish;

V) amaliy mashg'ulotlar mavzusini va topshiriqlar majmuini tayyorlashda o'quvchilarning xohishi va tashabbuslaridan kelib chiqish shakliga asoslanish.

Buning natijasida Germaniyalik boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limning keyingi bosqichida texnik va texnologik ko'nikmalarni tabiiy holda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'linmoqda.

Eslatib o'tish joizki, Germaniyada zamonaviy texnologik va innovatsion rivojlanish jarayoni tezkor ravishda amalga oshirilmogda. Shu sababli har bir o'quv yili boshida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'limning qaysi turlari yoki yo'nalishlariga tayyorlash belgilab olinadi. Buning natijasida mazkur mamlakatda boshlang'ich ta'limni bitiruvchilar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining turli shakllariga tayyorgarlik bosqichini o'taydi. Bu hol Yevropa mamlakatlari va AQSH ta'lim muassasalari tomonidan qiziqish bilan kuzatilib borilayotganligini ta'kidlab o'tish lozim.

E'tibor berilsa, Germaniya boshlang'ich ta'lim tizimining o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha zamonaviy individual texnologiyasidan foydalanishning imkoniyatlari kengdir. Shu sababli mazkur texnologiya mamlakatimizdagi pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'rganilishi va uni boshlang'ich ta'lim jarayoniga tatbiq etish metodikasining ishlab chiqarishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida "boshlang'ich sinf o'quvchilarini Germaniya individual texnologiyasi asosida ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorlash" mavzusi bilan "texnologiya" o'quv fanining boyitilishi kutilgan samarali natijalarni eslatib o'tish joiz.

Yaponiyaning texnik ta'lim texnologiyasi asosida tayyorlash.

Yaponiya barcha sohalar qatorida boshlang'ich ta'lim bo'yicha ham o'zining muhim tarixialariga amal qiladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini Yaponiyada texnik ta'lim texnologiyasi asosida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha o'ziga xos amaliyotlari mavjud. Bunda quyidagilarga amal qilinishini alohida ta'kidlab o'tish kerak:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilari 4-5-sinflarda bevosita ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bosqichini o'taydi;

2) bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari nanotexnologiyalar ta'lim tizimiga asoslangan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanadi.

3) buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari eng so'nggi nanotexnologiyalar asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalar bilan qurollantiriladi.

4) boshlang'ich sinf o'quvchilari bir necha nanotexnologiyalar turlari asosida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanishi mumkin bo'ladi.

Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nihoyatda murakkab va mikrosxemalarga boy bo'lgan texnika asoslarini o'rganishi tezkor ravishda tarkib topmoqda. Savol tug'iladi: bu hol boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatlariga mosmi? Bu muammaning tabiiy yechimi Yaponiyaning nanotexnologiyalar rivojlanishiga moslashganligi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni bitirishi bilan izohlanadi. Chunki yapon xalqi oilasi va turmush muhitida texnik vositalardan foydalanish tabiiy ravishda

tarkib topgan.

Yaponiya texnik ta'limi texnologiyasi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda o'qitishning quyidagi shakllariga asoslanilishini alohida ta'kidlab o'tish lozim:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilari nanotexnologiyalarni turlari bo'yicha guruhlariga bo'lingan holda o'qitish jarayoni tashkil qilinadi;

b) mashg'ulotlar bevosita ishlab chiqarish fermalari va mikrokorxonalarda amalga oshiriladi;

v) mashg'ulotlar bevosita amaliyotchi mutaxassislar tomonidan olib boriladi;

g) o'qituvchi o'quvchilarning bilim va odob qoidalariga qat'iy rioya qilishini nazorat qilib boradi;

Bunday metodika asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha Yaponiya milliy tajribasi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirilgan yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanishida paternalizm qoidasini, ya'ni katta yoshlilar hamda ta'lim muassasasining qoidalariga qat'iy amal qilish ko'nikmalarini chuqur o'zlashtiradi. Natijada Yaponiyada ta'lim va tarbiyaning intizom metodikasi butun dunyo mamlakatlari tomonidan e'tirof etilgan. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini nanotexnologiyalarga asoslangan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash tajribasi va bunda qat'iy intizomga rioya qilish metodikasidan foydalanish kutilgan samarani beradi. Buning uchun oliy pedagogik pedagogik ta'lim jarayonida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" o'quv fani "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nanotexnologik ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorlash" mavzusi bilan boyitilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu tajribadan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash ishini kuchaytirishini alohida ta'kidlash lozim.

Xitoyning ijtimoiy ta'lim texnologiyasi asosida tayyorlash
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashda xorijiy mamlakatlarning tajribadan o'tgan

texnologiyalaridan foydalanish samarali ekanligini pedagog olimlar e'tirof etishadi. Shu jihatdan mazkur masalada Xitoyning ijtimoiy ta'lim texnologiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash imkoniyatlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xitoyning ijtimoiy ta'lim texnologiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'limga tayyorlash quyidagilarga asoslanilgan ekanligini eslatib o'tish joiz:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilari 3-sinfdan boshlab ijtimoiy kasb-hunarlarga yo'naltiriladi;

2) ijtimoiy kasb-hunarlar turlarini shaxsiy korxonalarda ishlab chiqarish turlari bilan Shug'ullanish, IT texnologiyalari, nanotexnologiyalar turlari, individual yaratmalar va uskunalar, ijtimoiy infrastrukturaviy vositalari kabilar tashkil qiladi;

3) ta'lim olingan o'quvchilarning ijtimoiy guruhlari ijtimoiy kasb-hunar turlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar vositasida kasbiy yo'naltiriladi va tayyorlanadi, bunda asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqarish joylarida o'tkazishga qaratiladi;

4) ijtimoiy kasb-hunarlarga tayyorlash mashg'ulotlari umumiy ta'lim davridan keyin vaqti uzaytirilgan o'quv kurslari vositasida amalga oshiriladi;

5) har bir ijtimoiy kasb-hunar turi bo'yicha amaliy mutaxassislar mashg'ulotlari amalga oshiriladi;

6) ta'lim natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari bitiruvchi sifatida umumiy o'qish davomi ta'lim turiga va muayyan ijtimoiy kasb-hunar bo'yicha tayyorgarlikka ega bo'ladi.

Bu texnologiya boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy va kasbiy ta'limga tayyorlashi bilan butun dunyo mamlakatlari ta'lim muassasalari tomonidan e'tirof etib kelinayotganligini eslatib o'tish lozim.

Ta'kidlash lozimki, Xitoyda boshlang'ich ta'lim savodxonlikning eng asosiy bosqichi hisoblanadi va mazkur ta'lim bosqichidan keyin boshlang'ich sinf bitiruvchilari umumiy o'qish ta'limini davom ettirishi yoki ijtimoiy kasb va hunar bilan Shug'ullanishi mumkin. Shu ma'noda bu texnologiyada asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiy-kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Xitoy mamlakatining boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha ijtimoiy ta'lim texnologiyasidan mamlakatimizda quyidagi shakllarda foydalanish metodik jihatdan bizningcha, to'g'ri hisoblanadi:

a) boshlang'ich sinf o'quvchilarini 3-sinf dan boshlab ijtimoiy kasb va hunarlarga tayyorlashning metodikasi hamda turlarini belgilab olish;

b) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy kasb va hunarlar bo'yicha qiziqishlariga ko'ra guruhlariga bo'lish hamda ularni amaliyotchi mutaxassislariga biriktirish;

v) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy kasb va hunarlar bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish ishini IT markazlarida amalga oshirish hamda buning uchun tashkiliy-metodik sharoitlar yaratish.

Bunday shakllar asosida ijtimoiy ta'lim texnologiyasiga binoan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash ularni kasb va hunarlarga amaliy yo'naltirish hamda dastlabki bosqichda ko'nikmalarini tarkib toptirish imkoniyatlarini beradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning xorijiy mamlakatlar zamonaviy texnologiyasi bo'yicha Germani, Yaponiya va Xitoy tajribasi namunasi sifatidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakatning mazkur masala bo'yicha o'ziga xos tajribasi mavjud. Ayni aytda bunday tajribalardan foydalanish amaliyotga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mazkur masalada xorijiy mamlakatlarni zamonaviy texnologiyalarini o'rganib borish va ularning eng muhim yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga xorijiy mamlakatlarning zamonaviy texnologiyasi asosida tayyorlash bu boradagi imkoniyatlarni kengaytiradi. Bunda Germaniyaning individual tayyorlash texnologiyasi, Yaponiyaning texnik tayyorlash texnologiyasi va Xitoyning ijtimoiy ta'lim texnologiyasi amaliyotga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli bu kabi texnologiyalardan foydalanish uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari

metodologik qurollantirilishi hamda amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagoglarni kasbiy rivojlantirish markazlari orqali mamlakatimizda tayyorlash ishlarini yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib turibdi. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida mazkur muhim pedagogik vazifani amalga oshirish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligini eslatib o'tish lozim bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga xorijiy mamlakatlarning zamonaviy texnologiyalari asosida tayyorlash ham bu boradagi ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Mazkur masalada quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Yevropa mamlakatlaridan Germaniyaning boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash tajribasi o'ziga xos tarzda ko'zga tashlanadi. Unda 3-sinf dan boshlab dastlabki ixtisoslashtirilgan o'quv fanlari 80% miqdorida va umumiy ta'lim fanlari 20% miqdorida amalga oshiriladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari robototexnika, texnologiya kabi yo'nalishlarga asoslangan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga oqilona tayyorlaniladi.

2. Osiyo mamlakatlaridan Yaponiya tajribasida asosiy e'tibor texnik ta'lim texnologiyasiga qaratiladi. Unda 4-5-sinflarda boshlang'ich sinf o'quvchilari bevosita kompyuter, nanotexnologiya kabi yo'nalishlarga asoslangan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlanish ko'nikmasini o'zlashtiradi.

3. Yana bir Osiyo mamlakatlaridan biri Xitoy tajribasida ijtimoiy ta'lim texnologiyasiga asoslaniladi. Unda 3-sinf dan boshlab o'quvchilar ijtimoiy kasb-hunarlariga yo'naltiriladi va individual yaratmalar, uskunalar hamda ijtimoiy infrastruktura asoslari bilan qurollantiriladi.

Shu tariqa boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha xorijiy mamlakatlarning zamonaviy texnologiyalari ularning milliy ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqilganligini alohida ta'kidlash lozim.

XULOSA VA TAVSIYALAR

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi asosida mamlakatimiz boshlang‘ich ta‘lim tizimining imkoniyatlari va vazifalari kengayib bormoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga tayyorlash vazifasi jamiyatning ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammoning metodikasi masalasi bo‘yicha amalga oshirilgan ushbu bitiruv-malakaviy ishimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga tayyorlash pedagogik zaruriyat va jamiyat ehtiyoji hisoblanadi. Biz bu o‘rinda ixtisoslashtirilgan sinflar va maktablarga o‘quvchilarni tayyorlash masalasini tahlil qilinib, uning yangi metodlari ishlab chiqildi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga tayyorlashning nazariy asoslarida o‘quvchilarni tayyorlash zaruriyati va mazkur masalaning pedagogik xususiyatlari muhim o‘rin tutadi. Bunda o‘quvchilarni tayyorlash zaruriyati jamiyat ehtiyoji, ta‘limiy, tarbiyaviy va amaliy jihatdan tayyorlash hamda o‘quvchilarning ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida boshlang‘ich ta‘limning qiyofasi sifatida faoliyat yuritishi bilan belgilanadi.

3. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga maqsadli tayyorlanishi, ularning kutilgan darajada bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishiga erishish hamda o‘quvchilarni ta‘limiy-tarbiyaviy jihatdan munosib voyaga yetkazish mazkur masalaning pedagogik xususiyatlarini belgilaydi.

4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga tayyorlashda o‘quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar fanlarga turkumlashtirib o‘qitish muhim ahamiyatga ega hamda tarbiya jarayonida o‘quvchilarning axloqiy ongini munosib shakllantirish, ularni ijtimoiy faollashtirish va o‘zgalarga munosabatini talab darajasida tarkib toptirish bu ishda muhim ahamiyatga ega.

5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga tayyorlashda amaliyot omili muhim o‘rin tutadi. Buning uchun ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarni tayyorlash

natijasida ularni yo‘naltirish, qiziqishlarini rivojlantirish hamda monitoring ishini olib borish kutilgan samarani beradi.

6. Kompyuterli massus dastur asosida “Ixtisoslashtirilgan ta‘limga tayyorlantirish” individual kompyuterli texnologiyasi biz tomonimizdan shakllantirildi va u asosda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mazkur ta‘lim muassasalariga tayyorlash amaliy samarani berishini eslatib o‘tish lozim.

Mazkur tadqiqotimiz natijalari yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

1. Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy pedagogik ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga tayyorlash bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda “Texnologiya” hamda “Informatika va axborot texnologiyalari” o‘quv fanlari ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida muhim ahamiyatga egadir.

2. Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy pedagogik ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga tayyorlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirilishi lozim. Bunda biz tomonimizdan shakllantirilgan “Ixtisoslashtirilgan ta‘limga tayyorlantirish” kompyuterli individual texnologiyasi kabi zamonaviy va inqilobiy texnologiyalarga asoslanish kutilgan samarani beradi.

3. Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy pedagogik ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga tayyorlash bo‘yicha massus dastur ishlab chiqilib, amalga kiritilish kutilgan samarani beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy hujjatlar va rasmiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // www.ziynet.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // www.ziynet.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davurida ta'lim-tarbiya va ilmfan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // www.ziynet.uz.
4. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. // www.ziynet.uz.
5. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. // www.ziynet.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi Farmoni
7. Mirziyoev SH.M.Insonparvarlik, ezigulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir.- Toshkent, 2021

II. Ilmiy va boshqa adabiyotlar

1. Abdullaeva B., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -T.: TDP. 2017
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDP.2003
3. Bugatov V.M. Pedagogicheskie tainstva didakticheskix igr. - M.: "Flinta".2003
4. Ishmuhamedova R.,Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: "Fan va texnologiya".2010
5. Jabborova O.,Umarova Z., Boboxodjaeva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. -T.: "Ishonchli hamkor".2021
6. Jabborova O. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. -T.: "Ishonchli hamkor".2022
7. Jumanova F., Avazova S., Jabborova G., Xusnetdinov U. Umumiy pedagogika asoslari. -T.: "Ishonchli hamkor".2020

8. Ziyomuhamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. - T.: "Ziyo", 2009
9. Zufarov SH. Pedagogik innovatika. -T.: "Fan va texnologiya". 2012
10. Yo'ldoshev J.G'. "Ta'lim yangilanish yo'lida". - T.: "O'qituvchi", 2000
11. Yo'doshev J.G'.,Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. -T.: "O'qituvchi". 2008.
12. Karimova V.M. Psixologiya. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002
13. Karimjonov A., Ochilov F. Boshlang'ich ta'lim muammolari. -T.: "Ishonchli hamkor". 2021
14. Mahmudov M.N. Ta'limni didaktik loyihalash prinsiplari. - T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002
15. Muxamedov G.,Xodjamkulov U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri. - CHirchiq.: "Universitet". 2020
16. Safarova R. va boshq. O'zbek pedagogikasi ensiklopediyasi. Iki jildli. -T.: "SHarq", 2008
17. Umarova Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. -T.: "Ishonchli hamkor".2021
18. Ochilov M.O. Muallim qalb me'mori. -T.: O'qituvchi, 2001
19. Xodjaev B. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. -T.: TDP, 2008

ILOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlash bo'yicha me'yoriy hujjatlardan namuna

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida

(farmonning nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

Ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishga yagona yondashuvni shakllantirish, ushbu maktablar tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ta'lim jarayoniga malakali rahbar va pedagog kadrlarni jalb qilish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirish maqsadida:

Oldingi tahrirga qarang.

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining quyidagi takliflari ma'qullansin:

(1-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

a) Agentlik tizimida:

2022 yil 1 sentyabrga qadar vazirlik, idora va tashkilotlar tasarrufida bo'lgan ta'lim muassasalari negizida 19 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni hamda 141 ta ixtisoslashtirilgan maktablarni 1 va 2-ilovalarga muvofiq;

Oldingi tahrirga qarang.

2023-yil 1-iyunga qadar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufida bo'lgan va faoliyati tugatilgan Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari negizida 5 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni hamda 3 ta ixtisoslashtirilgan maktablarni 3-ilovaga muvofiq tashkil etish;

(1-band «a» kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

b) 2022 — 2024 yillarda Agentlik tizimida 25 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni 4-ilovaga muvofiq qurish;

v) 2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ayrim fanlarni chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar negizida ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablarini tashkil etish;

g) kelgusida yangi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablarni faqat Agentlik tizimida tashkil etish.

Mas'ul vazirlik, idora va tashkilotlar bir oy muddatda mazkur Farmonning 1 — 3-ilovalarida ko'rsatilgan ta'lim tashkilotlarining mol-mulki, bino va inshootlarini operativ boshqaruv huquqi asosida Agentlik tizimiga o'tkazish choralarini ko'rsin.

Vazirlar Mahkamasiga zarur hollarda, mazkur Farmonning 1 — 4-ilovalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, Shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari taklifiga asosan Agentlik tizimida tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar sonini oshirish huquqi berilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari 2023-yil 1-yanvarga qadar Agentlik tizimiga o'tkazilayotgan Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, jihozlash va ular hududida yangi o'quv binolarini qurish ishlarini tugatsin.

3. Belgilansinki:

Agentlik tizimidagi mavjud ixtisoslashtirilgan maktablar o'z faoliyat yo'nalishidan kelib chiqqan holda, mazkur Farmonga muvofiq tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablarga (keyingi o'rinlarda — Agentlik

maktablari) metodik yordam ko'rsatuvchi tayanch maktab sifatida biriktiriladi;

Agentlik maktablariga qabul parametrlari bir sinfda o'quvchilarning eng ko'p soni 24 nafardan oshmasligini hisobga olgan holda Agentlik tomonidan belgilanadi;

2022/2023 o'quv yilida Agentlik maktablarining aniq fanlar yo'nalishiga qabul 5 — 11-sinflarga, tabiiy fanlar yo'nalishiga 7 — 11-sinflarga, keyingi o'quv yillarida tegishincha 5- va 7-sinflarga amalga oshiriladi;

Agentlik maktablariga o'quvchilarni qabul qilish aniq va tabiiy fanlar, xorijiy tillar hamda mantiqiy fikrlash bo'yicha o'tkaziladigan kirish imtihonlari natijalariga ko'ra amalga oshiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

kirish imtihonlari Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tomonidan xalqaro tashkilotlar hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan hamkorlikda o'tkaziladi;

(2-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

ro'yxati Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan xalqaro, mintaqaviy yoki asosiy fan olimpiadalarining uchinchi (viloyat) bosqichida g'olib bo'lgan (1, 2, 3-o'rin) umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim tashkilotlari o'quvchilari o'zi ta'lim oladigan hududida joylashgan Agentlik maktablariga umumiy qabul parametrlari doirasida kirish imtihonsiz o'qishga qabul qilinadi;

Agentlik maktablarining ta'lim jarayoni Agentlik tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalari va ta'lim dasturlari asosida amalga oshiriladi;

Agentlik maktablarida aniq va tabiiy fanlar bilan bir qatorda O'zbekiston tarixi fani chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi;

o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularga keyinchalik o'qishini davom ettirish uchun oliy ta'lim muassasalarini tanlashda ko'maklashish maqsadida Agentlik maktablari direktorining ixtisoslik fanlari bo'yicha o'rinbosari lavozimi o'rniga «Maktab maslahatchisi» lavozimi joriy etiladi;

Agentlik tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda o'quvchilar uchun autsorsing asosida bepul sog'lom ovqatlanish tashkil etiladi;

Oldingi tahrirga qarang.

Agentlik maktablariga rahbar kadrlarni ishga qabul qilish ikki bosqichli (saralash va suhbat), pedagog kadrlarni ishga qabul qilish uch bosqichli (saralash, test sinovi va suhbat) tanlov asosida amalga oshiriladi.

(2-bandning o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

Agentlik maktablarida Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan sodiralar ish haqqi fondining 100 foizi miqdorida rag'batlantirish jam'asmasi shakllantiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

3. Agentlik (A. Ubbiev) 2022/2023 o'quv yilidan boshlab Agentlik maktablarida:

(3-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

o'quv jarayoni xalqaro ta'lim dasturlari asosida tayyorlangan zamonaviy darsliklar asosida olib borilishini ta'minlasin;

o'quvchilar xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishi uchun zarur shart-sharoit va ta'lim muhitini yaratsin, mazkur jarayonga xorijiy hamda mahalliy pedagog kadrlarni jalb qilsin;

sun'iy intellekt, robototexnika, agrotexnologiya, nanotexnologiya, biotexnologiya, IELTS, TOEFL va SAT bo'yicha qo'shimcha kurslar tashkil etsin;

o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, asosiy o'quv dasturlari bilan birgalikda sinfdan tashqari kasbga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishini yo'lga qo'ysin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 10- va 11-sinf o'quvchilariga yaqin hududlarda joylashgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish

tartibini joriy etsin;

ta'lim va tarbiya jarayonlariga vatanparvarlik ruhi, milliy g'urur va iftixor, o'z xalqiga muhabbat va sadoqat, O'zbekiston tarixi, ilmiy-ijodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy merosga hurmat, o'zlikni anglash, mehnatsevarlik va mas'uliyatlik, qat'iyat va shijoatlik g'oyalari singdirilishiga alohida e'tibor qaratsin;

o'quvchilarni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati va yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlarni chuqur anglaydigan, har jihatdan raqobatbardosh, keng dunyoqarash, mustaqil fikr va intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalash uchun ta'sirchan pedagogik texnologiyalardan foydalanish choralari ko'rsin.

4. Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2022-yil 1-sentyabrga qadar Agentlik tizimiga o'tkazilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining saralash imtihonlaridan o'ta olmagan o'quvchilarini xalq ta'limi tizimidagi boshqa umumiy o'rta ta'lim maktablariga joylashtirish hamda tanlovdan o'ta olmagan rahbar va pedagog kadrlarni ish bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

5. Belgilab qo'yilsinki, Agentlik maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, zamonaviy mebel va jihozlar, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia hamda video-kuzatuv vositalari bilan ta'minlash — O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan mablag'lar, Davlat byudjeti mablag'lari, Agentlik huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, xalqaro moliya institutlarining kreditlari va grantlari, homiylik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi (SH. Kudbiev), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) mazkur Farmonning 4-ilovasida ko'rsatilgan Agentlik maktablarining

2023-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishini ta'minlasin.

(3-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2022-yil 1-avgustga qadar mazkur Farmonning 1-2-ilovalarida ko'rsatilgan Agentlik maktablarini ta'mirlash, zamonaviy o'quv qurollari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mebel va o'quv-laboratoriyalar bilan jihozlash choralari ko'rsin, o'quvchilarga yashash va ovqatlanish uchun zarur sharoitlarni yaratsin.

6. Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) etib qayta nomlansin.

Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari uchun davlat ta'lim standarti, o'quv rejaları, ta'lim dasturlari va darslik majmualarini ishlab chiqish hamda ularni xarid qilish;

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazish;

ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash va sertifikatlashni xorijiy mamlakatlarning etakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshirish;

rahbar va pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish;

Oldingi tahrirga qarang.

davlat va nodavlat umumta'lim muassasalari o'quvchilarining

bilimini baholash;

ta'lim va ilmiy-tadqiqot sohalariga doir innovatsion loyihalarni amalga oshirish;

pedagog kadrlarga malaka toifasi berish sinovlarini tashkil qilishda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ko'maklashish.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 apreldagi PF-55-sonli Farmoniga asosan xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.04.2024 y., 06/24/55/0263-son)

7. Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tuzilmasi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Agentlik (X. Umarova) bir oy muddatda Markaz nizomini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

8. Markazga mulk shaklidan qat'i nazar umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining bilim darajasi hamda kasbiy mahoratini baholashga ruxsat etilsin.

Belgilansinki:

a) Markaz tomonidan pedagog kadrlarning bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash barcha talabgorlar uchun shartnoma asosida amalga oshiriladi;

b) Markaz tomonidan pedagog kadrlarning bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash natijasi bo'yicha 2 yil muddat davomida amal qiluvchi «Ilg'or o'qituvchi», «Ustoz o'qituvchi» hamda «Professional o'qituvchi» darajali sertifikatlar beriladi;

v) Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalarining xalqaro miqyosda tan olinadigan «Ilg'or o'qituvchi», «Ustoz o'qituvchi» yoki «Professional o'qituvchi» darajali sertifikatni olgan pedagog kadrlariga quyidagi miqdorda qo'shimcha haq to'lanadi:

«Ilg'or o'qituvchi» darajali sertifikatni olgan pedagog kadrlarga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida;

«Ustoz o'qituvchi» darajali sertifikatni olgan pedagog kadrlarga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 70 foiz miqdorida;

«Professional o'qituvchi» darajali sertifikatni olgan pedagog kadrlarga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 100 foiz miqdorida;

g) Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalariga «Ilg'or o'qituvchi», «Ustoz o'qituvchi» yoki «Professional o'qituvchi» darajali sertifikatni

olgan pedagog kadrlarni ularning malaka toifasidan qat'i nazar ishga qabul qilish huquqi beriladi;

d) Markaz Moliya vazirligi g'aznachilik bo'linmasida shaxsiy g'azna hisob raqamiga ega bo'ladi va uning faoliyati Davlat byudjeti mablag'lari, byudjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

e) Markazning ma'muriy-boshqaruv xodimlari, professor-o'qituvchilari hamda metodistlariga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlari tatbiq etiladi;

(8-bandning «e» kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

j) Markazga unga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi xalqaro tashkilotlar bilan maxsus ashorot portaliga e'lon joylashtirmasdan eng maqbul takliflar tanlovi usuli to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish huquqi beriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

9. Agentlik (A. Ubbiev):

(9-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

a) rahbar va pedagog kadrlar bilim darajasi hamda kasbiy mahoratini baholash jarayoniga ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi muvazil xalqaro tashkilotlarni jalb qilsin;

b) Markazda ta'lim tashkilotlarining rahbar va pedagog kadrlari uchun uzluksiz malaka oshirish kurslari hamda metodologik o'quv seminarlarni tashkil qilsin;

v) 2022 yil 1 oktyabrga qadar Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini o'qitish hamda ularning bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash choralarini ko'rsin;

g) 2022 yil 1 sentyabrga qadar iqtidorli bolalar bilan ishlashning

«Maktab — Universitet — Markaz» yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini joriy qilsin va mazkur tizim doirasida:

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalarining davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va ta'lim dasturlari o'zaro uzviy bog'langan holda ishlab chiqilishini;

«Yangi O'zbekiston» universiteti va Markaz tomonidan Agentlik tizimidagi maktablarda mahorat darslari, to'garaklar va yozgi maktablar tashkil etilishini;

«Yangi O'zbekiston» universiteti va Markazning professor-o'qituvchilari va iqtidorli talabalari Agentlik tizimidagi maktablarning ta'lim jarayoniga keng jalb qilinishini;

Agentlik tizimidagi maktablarning o'qituvchilari «Yangi O'zbekiston» universiteti va Markazga stajirovka o'tashga jalb qilinishini;

Markaz tomonidan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazishda hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishda Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalarining faol ishtirokini ta'minlasin.

Agentlikka zaruratga qarab byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan Markazning hududiy filiallarini ochishga ruxsat etilsin.

10. O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari Agentlik bilan birgalikda vakolatxonalarga biriktirilgan hududlarda joylashgan Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalariga xorijiy ilg'or tajribalarni joriy etish maqsadida:

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalariga xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha malakali mutaxassislarni jalb etgan holda ta'lim jarayonini takomillashtirish;

o'qituvchilar va o'quvchilarni tajriba almashish dasturlari bo'yicha xorijiy ta'lim muassasalariga yuborish;

nufuzli xalqaro oliy ta'lim muassasalari grant dasturlari asosida bitiruvchilarning ta'lim olishiga ko'maklashish;

rivojlangan davlatlar bilan ta'lim va ilm-fanni takomillashtirish borasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

dunyo miqyosida tan olingan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tibbiyot, ekologiya, muhandislik va boshqa sohalaridagi etakchi tashkilotlar bilan Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va yanada rivojlantirish;

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan mahalliy mutaxassislarning xorijiy ilg'or ta'lim muassasalarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini tashkil etish;

o'qituvchilar va o'quvchilarning xalqaro konferensiyalar, anjumanlar, fan olimpiadalari, tanlovlar, ixtisoslikka oid ko'rgazmalarda ishtirok etishiga ko'maklashish;

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari kutubxonalarini etakchi xorijiy axborot-kutubxona resurslari fondlariga ulash, ularni xorijiy adabiyotlar bilan boyitib borish, o'qituvchilar va o'quvchilarga ushbu kutubxona resurslaridan keng foydalanish uchun imkoniyat yaratish choralari ko'rsin.

11. Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha «yo'l xaritasi» 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

Agentlik (A. Ubbiev) boshqa vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklar bilan birgalikda «yo'l xaritasi»da nazarda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlasin.

(11-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

12. Agentlikning:

Agentlik markaziy apparati tuzilmasida sog'lom ovqatlanishni tashkil etish Shu'basi, ichki audit xizmati, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar bilan ishlash bo'limini ochish va Agentlikning umumiy cheklangan shtat birliklari sonini 80 nafar etib belgilash;

Agentlik tashkiliy tuzilmasida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va har biri 4 ta shtat birligidan iborat 13 ta hududiy bo'limlarini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

Belgilab qo'yilsinki:

Agentlik markaziy apparati va hududiy bo'limlar uchun zarur bo'lgan 67 ta shtat birligining 50 tasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi, 17 tasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimidagi tegishli shtat birliklarini maqbullashtirish hisobiga shakllantiriladi;

Agentlik hududiy bo'limlari xodimlariga Agentlikning tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy

rag'batlantirish shartlari qo'llaniladi.

13. Agentlik (X. Umarova) ikki oy muddatda Agentlik va uning hududiy bo'limlariga zarur bilim va salohiyatga ega malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislarni ishga jalb qilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2023-yil 1-yanvarga qadar mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan Agentlik hududiy bo'limlarini bittadan engil avtomobill bilan ta'minlash choralarini ko'rsin.

Oldingi tahrirga qarang.

14. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablari (keyingi o'rinlarda — fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar) hamda maktab-internatlar faoliyatini tashkil etishning Shunday tartibi o'rnatilsinki, unga muvofiq 2022/2023 o'quv yilidan boshlab:

(14-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlar bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim maktablari sifatida qayta tashkil etiladi;

fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlar faoliyati ushbu maktablarda ixtisoslashtirilgan dasturlar asosida ta'lim olayotgan o'quvchilar o'qishini bitirguniga qadar davom ettiriladi;

fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlarning rahbarlariga hamda ixtisoslashtirilgan fanlardan dars o'tganligi uchun pedagog kadrlariga amalda belgilangan qo'shimcha ustama haqlar ushbu maktablardagi ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyati tugatilguniga qadar saqlab qolinadi;

maktab-internatlarda o'quvchilar belgilangan tartibda yotoqxona va oziq-ovqat bilan ta'minlanadi;

fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlarda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish, Shuningdek, ayrim fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitish uchun ixtisoslashtirilgan fanlar ikki guruhga bo'lib o'qitilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

(14-bandning ettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 martdagi PF-79-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

15. Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda Agentlik tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarorini qabul qilsin.

16. Moliya vazirligi (T. Ishmetov) mazkur Farmonga muvofiq yangi tashkil etiladigan ta'lim muassasalarining ta'minoti uchun zarur xarajatlarni:

2022 yilda Agentlik tizimiga o'tkazilayotgan ta'lim muassasalarining yuqori turuvchi birinchi darajali byudjet mablag'lari oluvchilarida bo'shaydigan byudjet mablag'lari hamda Agentlikka Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtirsin;

2023 yildan boshlab belgilangan tartibda Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 7-ikrovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

18. Agentlik (X. Umarova) ikki oy muddatda:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov), Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (U. Tashkenbaev) hamda Davlat test markazi (M. Karimov) bilan birgalikda 2024/2025 o'quv yili qabulidan boshlab Agentlik maktablari bitiruvchilariga kimyo, biologiya, fizika, matematika va axborot texnologiyalari sohalari uchun kadrlar tayyorlaydigan davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda imtiyoz berish bo'yicha;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

19. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri X. Umarova, Agentlik direktori A. Ubbiev hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimlari belgilansin.

Farmon ijrosini nazorat qilish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi O.K. Abdurahmanov zimmasiga yuklansin.

(19-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
SH. MIRZIYOEYEV**

Toshkent sh.,
2022-yil 14-aprel,
PF-106-son

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 apreldagi
PF-106-son Farmoniga
1-ILOVA**

Oldingi tahrirga qarang.

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimida tashkil
etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning
MANZILLI RO'YXATI**

(1-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)

T/r	T/r	Tuman (shahar) nomi	Negizida ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar tashkil etilayotgan ta'lim muassasalari nomi	Quvvati	Tasarrufida Agentlik tizimiga o'tkazilayotgan ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik, idora va tashkilotlar nomi	Agentlik tizimida tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar nomi
I. Qoraqalpog'iston Respublikasi						
1.	1.	Nukus shahri	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali qoshidagi akademik litsey	720	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	Nukus shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
2.	2.	Qo'ng'iro't tumani	Qo'ng'iro't tumani 2-son kasb-hunar maktabi	690	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Qo'ng'iro't tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati
II. Andijon viloyati						
3.	1.	Andijon shahri	13-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	540	Xalq ta'limi vazirligi	Andijon shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
III. Buxoro viloyati						

4.	1.	Qorako'l tumani	Xalqaro matematika maktabi	720	Xalq ta'limi vazirligi	Qorako'l tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati
IV. Jizzax viloyati						
5.	1.	Jizzax shahri	Umid nomli ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	960	Xalq ta'limi vazirligi	Jizzax shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
V. Qashqadaryo viloyati						
6.	1.	Qarshi shahri	Qarshi transport texnikumi	450	Transport vazirligi	Qarshi shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
7.	2.	Kitob tumani	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktab-internati	720	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Kitob tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati
VI. Navoiy viloyati						
8.	1.	Navoiy shahri	Navoiy-Qorako'l ixtisoslashtirilgan maktab-internati	450	Xalq ta'limi vazirligi (o'quv binosi) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (yotoqxona binosi)	Navoiy shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
VII. Namangan viloyati						
9.	1.	Namangan shahri	2-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	640	Xalq ta'limi vazirligi	Namangan shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
VIII. Samarqand viloyati						
10.	1.	Samarqand shahri	Mirzo Ulug'bek nomidagi ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	300	Xalq ta'limi vazirligi	Samarqand shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
11.	2.	Qo'shrabot tumani	90-son ixtisoslashtirilgan maktab	540	Xalq ta'limi vazirligi	Qo'shrabot tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati
IX. Surxondaryo viloyati						
12.	1.	Termiz shahri	Al-Hakim at-Termiziy nomidagi 1-son viloyat yosh fizik-matematiklar maktab-internati	315	Xalq ta'limi vazirligi	Termiz shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
X. Sirdaryo viloyati						
13.	1.	Guliston shahri	Informatika va asborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan tayanch maktab-internati	560	Xalq ta'limi vazirligi	Guliston shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
14.	2.	Guliston tumani	Matematika, fizika, ingliz tili va kimyo-biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan Sirdaryo-Qorako'l maktab-internati	310	Xalq ta'limi vazirligi	Guliston tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati
XI. Farg'ona viloyati						
15.	1.	Farg'ona shahri	1-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	630	Xalq ta'limi vazirligi	Farg'ona shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
16.	2.	O'zbekiston tumani	65-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	410	Xalq ta'limi vazirligi	O'zbekiston tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati
17.	3.	Quva tumani	63-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	360	Xalq ta'limi vazirligi	Quva tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati

XII. Xorazm viloyati						
18.	1.	Urganch shahri	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali akademik litseyi	540	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	Urganch shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati
19.	2.	SHovot tumani	Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro maktab	360	Xalq ta'limi vazirligi	SHovot tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 apreldagi
PF-106-son Farmoniga**

2-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimida tashkil
etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablarning**

MANZILLI RO'YXATI

*(2-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023
yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik
ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son)*

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	T/r	Tuman (shahar) nomi	Negizida ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etiladigan ta'lim muassasalari nomi	Quvvati	Tasarrufida Agentlik tizimiga o'tkazilayotgan ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik, idora va tashkilotlar nomi	Agentlik tizimida tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablar nomi
I. Qoraqalpog'iston Respublikasi						
1.	1.	Amudaryo tumani	Nukus davlat pedagogika instituti qoshidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat	495	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Amudaryo tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
2.	2.	Beruniy tumani	35-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	720	Xalq ta'limi vazirligi	Beruniy tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
3.	3.	Bo'zatov tumani	3-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	844	Xalq ta'limi vazirligi	Bo'zatov tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
4.	4.	Qorao'zak tumani	2-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	624	Xalq ta'limi vazirligi	Qorao'zak tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
5.	5.	Kegeyli tumani	Kegeyli tumani 2-son kasb-hunar maktabi	600	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Kegeyli tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
6.	6.	Mo'ynoq tumani	8-son innovatsion maktab	220	Xalq ta'limi vazirligi	Mo'ynoq tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
7.	7.	Nukus tumani	23-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	360	Xalq ta'limi vazirligi	Nukus tuman ixtisoslashtirilgan maktabi

8.	8.	Taxiatosh tumani	Qoraqalpog' davlat universiteti tasarrufidagi sobiq Taxiatosh agrosanoat kasb-hunar kolleji	360	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Taxiatosh tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
9.	9.	Taxtako'pir tumani	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali tasarrufidagi sobiq Taxtako'pir qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji	400	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	Taxtako'pir tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
10.	10.	To'rtko'l tumani	Xalq ta'limi bo'limi balandidagi sobiq akademik litsey	720	Xalq ta'limi vazirligi	To'rtko'l tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
11.	11.	Chimboy tumani	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti qoshidagi akademik litseyi	450	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Chimboy tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
12.	12.	Shumanay tumani	Shumanay pedagogika kolleji	360	Maktabgacha ta'lim vazirligi	Shumanay tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
13.	13.	Ellikqal'a tumani	13-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	240	Xalq ta'limi vazirligi	Ellikqal'a tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
II. Andijon viloyati						
14.	1.	Andijon tumani	16-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	600	Xalq ta'limi vazirligi	Andijon tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
15.	2.	Asaka tumani	Asaka transport va sizmat ko'rsatish texnikumi	1170	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Asaka tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
16.	3.	Baliqchi tumani	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti tasarrufidagi sobiq O'rmonbek qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji	750	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Baliqchi tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
17.	4.	Bo'ston tumani	26-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	570	Xalq ta'limi vazirligi	Bo'ston tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
18.	5.	Izboskan tumani	39-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	530	Xalq ta'limi vazirligi	Izboskan tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
19.	6.	Qo'rg'ontepa tumani	50-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	720	Xalq ta'limi vazirligi	Qo'rg'ontepa tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
20.	7.	Marhamat tumani	31-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	420	Xalq ta'limi vazirligi	Marhamat tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
21.	8.	Oltinko'l tumani	52-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	720	Xalq ta'limi vazirligi	Oltinko'l tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
22.	9.	Ulug'nor tumani	Andijon davlat universiteti tasarrufidagi sobiq Ulug'nor qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji	720	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	Ulug'nor tuman ixtisoslashtirilgan maktabi

23.	10.	Xonobod shahri	Xonobod servis ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji	450	Turizm va madaniy meros vazirligi	Xonobod shahar ixtisoslashtirilgan maktabi
24.	11.	Xo'jaobod tumani	28-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	450	Xalq ta'limi vazirligi	Xo'jaobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
25.	12.	SHahrixon tumani	2-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	420	Xalq ta'limi vazirligi	SHahrixon tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
III. Buxoro viloyati						
26.	1.	Kogon shahri	17-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	630	Xalq ta'limi vazirligi	Kogon shahar ixtisoslashtirilgan maktabi
27.	2.	Buxoro tumani	13-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	270	Xalq ta'limi vazirligi	Buxoro tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
28.	3.	Vobkent tumani	6-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	320	Xalq ta'limi vazirligi	Vobkent tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
29.	4.	Jondor tumani	49-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	844	Xalq ta'limi vazirligi	Jondor tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
30.	5.	Kogon tumani	3-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	540	Xalq ta'limi vazirligi	Kogon tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
31.	6.	Olot tumani	31-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	420	Xalq ta'limi vazirligi	Olot tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
32.	7.	Peshku tumani	4-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	450	Xalq ta'limi vazirligi	Peshku tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
33.	8.	SHofirkon tumani	Buxoro davlat universiteti tasarrufidagi sobiq SHofirkon iqtisodiyot va servis kasb-hunar kolleji	450	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	SHofirkon tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
34.	9.	Qorovulbozor tumani	7-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	624	Xalq ta'limi vazirligi	Qorovulbozor tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
35.	10.	G'ijduvon tumani	65-son ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati	720	Xalq ta'limi vazirligi	G'ijduvon tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
IV. Jizzax viloyati						
